

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYAVIY BOSHQARUV FAKULTETI

“MENEJMENT VA MARKETING” KAFEDRASI

Xotamov Kamoliddin Nuriddinovich
Banklarda risk menejmenti»

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Menejment va marketing» kafedrası mudiri

_____i.f.n., dots. O.Jumayev

«____»_____2014 yil

Bitiruvchi :

5340200 -“Menejment”- ta'lim yo'nalishi

4 -kurs talabasi

Xotamov Kamoliddin Nuriddinovich

Ilmiy rahbar:

i.f.n. Rahmatov H.U.

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I bob. BANK RISKLARINING MOHIYATI VA TASNIFI.....	
1.1. Bank risklari menejmentining nazariy yondashuvlari va ularning tavsifi.....	6
1.2. Bank risklarini aniqlash tartibi va ularni boshqarish yo‘llari.....	15
1.3. Banklarda risk menejmentining xorij tajribasi va Xalqaro Bazel qo‘mitasining bank risklari bo‘yicha talablari.....	25
II bob. BANK RISKLARINI BOSHQARISHNING AMALDAGI XOLATI TAXLILI. DAT ”Asaka” bank (OAJ) Toshkent viloyat filiali misolida.....	
2.1. Kredit risklarini boshqarishning amaldagi xolati va tahlili.....	33
2.2. Valyuta risklarini hamda foiz risklarini boshqarishning tahlili..	42
2.3. Tijorat banklarining aktivlari va ular bilan bog‘liq risklarni boshqarish tahlili.....	57
III bob. BANK RISKLARINI BOSHQARISHNING SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	
3.1. Bank risklarini boshqarish bilan bog‘liq muammolar.....	71
3.2. Bank risklarini boshqarishni takomillashtirish yo‘llari.....	75
XULOSA.....	82
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	85
ILOVALAR.....	89

Mavzuning dolzarbligi. Har qanday korxona, tashkilot faoliyati risklar bilan bog'liq bo'lganligi kabi tijorat banklari faoliyati ham o'z navbatida turli risklar bilan bog'liqdir. Korxona va tijorat banklari bir - birlari bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatish vaqtida vujudga keladigan risklar darajasi muhim rol o'ynaydi. Shu sababli tijorat banklari biron bir subyekt bilan iqtisodiy aloqa o'rnatishdan oldin eng avvalo bu subyekt faoliyatidagi riskli holatlarni o'rganishga intiladi. Shunga qaramay, global moliyaviy inqiroz lo'rsatishicha, yuqori daromad ilinjida keragidan ortiq riskni o'z zimmasiga olish, spekulyativ amaliyotlardan keng foydalanish nafaqat alohida bank, balki butun bank tizimi barqarorligiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Bank faoliyatida risklar bilan bog'liq ekan, risklarni to'g'ri baholay olish, ularni sug'urtalash vositalaridan foydalanishni optimallashtirish, umuman olganda risk-menejment tizimini zamonaviy talablar asosida shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda islohotlarni yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida tijorat banklari oldiga muhim vazifalar qo'yilmoqda. "2013 yil bo'yicha bank tizimida kapitalning yetarlilik darajasi 24,3 foizni tashkil etdi. Bu esa, Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan belgilangan xalqaro me'yordan 3 barobar yuqoridir." ¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ 1438-sonli Qaroriga muvofiq, banklarda risk-menejment tizimini takomillashtirish borasida qator ustuvor yo'nalishlar, xususan, tijorat banklarining korporativ boshqaruvi tarkibida bank Kengashiga bevosita bo'ysunuvchi "Risklarni nazorat qilish" qo'mitasining majburiy tarzda joriy qilish, tijorat banklari kapitali tarkibida ularning inqiroz holatilari ta'siriga barqarorligini ta'minlaydigan barqarorlashtirish zaxiralarini yaratish, kapital yetarliliga qo'yiladigan talablarni takomil-

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning "2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalari"ga bag'ishlab, yilning 17 yanvarida Vazirlar Mahkamasida o'tkazilgan yig'ilishdagi ma'ruzasi.

lashtirish, ehtimoliy zararlarni qoplashga zaxiralarni shakllantirishni koʻzda tutgan Bazel qoʻmitasining yangi takliflarini bank nazorati tizimiga joriy qilish belgilandi.

Yurtboshimiz tomonidan mamlakatimiz banklariga qoʻyilgan talabni ogʻishmay bajarish har bir bankdan samarali boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish, xususan, risk menejmentini takomillashtirish choralarini koʻrishni taqozo etadi.

Taʼkidlash lozimki, global moliyaviy inqiroz xalqaro bank amaliyotida risklarni boshqarish tizimida jiddiy nuqsonlar borligini, ushbu tizimni isloh qilish zaruriyatini koʻrsatib berdi. Bunday sharoitda, bank faoliyati bilan bogʻliq risklarni boshqarishni samarali tashkil etish, risklarni tartibga solishning meʼyoriy talablarini Bazel nazorati boʻyicha Bazel qoʻmitasining zamonaviy tamoiillari asosida qayta koʻrib chiqish, ichki reyting tizimini shakllantirish boʻyicha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish ustuvor yoʻnalishlar sifatida belgilanishi lozim.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Bitiruv malakaviy ishining umumiy maqsadi boʻlib bank risklarini, ularni klassifikatsiyasini talqin etish va aniqlashtirish, Oʻzbekiston sharoitiga moslashtirilgan bank risklarini boshqarishning tashkiliy asoslarini ochib berishdan iboratdir...

Hozirgi zamobnaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarida riskmenejmentini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishinig vazifalari quyidagilardan iborat:

- bank risklarini boshqarishning nazariy asoslarini oʻrganish;
- bank risklarining turlari va boshqarish usullarini tadqiq qilish;
- banklarda risk-menejment tizimi tarkibini yoritish;
- tijorat banklarida risk menejmentini tashkil etish va uning iqtisodiy-huquqiy asoslarini oʻrganish;
- tijorat banklarida risklarni boshqarishning amaldagi holatini tahlil qilish;

- bank faoliyatida risklarni baholash va boshqarish bo'yicha xalqaro talablarni O'zbekistonda qo'llash bo'yicha shart-sharoitlarni o'rganish;

- banklarda risk menejmentini takomillashtirishdagi mavjud muammolarni aniqlash;

- tijorat banklarida risk menejmentini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari.

Tadqiqot predmeti bo'lib O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari risklarini boshqarish faoliyatida vujudga keladigan tashkiliy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar yig'indisi hisoblanadi.

Mavzuning nazariy-amaliy ahamiyati. Tijorat banklari faoliyatida risklarni aniqlash, ularni baholash va boshqarish bo'yicha boshqaruv qarorlarini ishlab qilish, nazorat qilish, risk menejmenti strategiyasini ishlab chiqish usullari to'g'risida nazariy va amaliy bilimlar doirasini kengaytiradi. Banklarda risk menejmentini takomillashtirish masalalari xorijiy olimlardan F.Night, J.Keyns, Sh.Hefferman, J.Hull, S.Rouz, Ye.Jukov, G.Korobova, T.Kox, O.Lavrushin, R.Cantillon kabi olimlarni asarlaridagi ma'lumotlar atroflicha o'rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusini boyitish maqsadida Sh.Abdullayeva, Y.Abdullayev, T.Qoraliyev, P.Saidxodjayev, I.Ismatullayev, F.Nasriddinov kabilarning ilmiy izlanishlar va o'quv adabiyotlaridan keng foydalanilgan

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi ... betdan iborat bo'lib, uning tuzilmasi kirish, uch bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalar hamda 23 ta jadval, 5 ta rasm, 1 ta diagrammani o'z ichiga oladi.

I bob. BANK RISKLARINING MOHIYATI VA TASNIFI

1.1 Bank risklari menejmentining nazariy yondashuvlari va ularning tavsifi

Har qanday iqtisodiy faoliyat foyda olishga qaratilganidek tijorat banklari faoliyatida ham ko‘zlangan maqsad – birinchi navbatda foyda olishdir. Bu yerda ham foyda olish risk bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli tijorat banklari oldida turgan vazifa – bu risk va foydalilik o‘rtasidagi optimal darajaga erishishdir.

Risk tushunchasi iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha talqin etiladi. Ilmiy-iqtisodiy adabiyotlarda riskga boshqacha bir nazar bilan qaralsa, qonunchilik hujjatlarida boshqa jihatdan qaraladi. Rus tili lug‘atida tavakkalchilik so‘zi «risk» deb atalib, qadimiy grek so‘zidan olingan. U kemalarni halokatga olib boruvchi va odamlarning o‘limiga, mol-mulklarning cho‘kib ketishiga sababchi qoyani bildirib, «qoyalar orasidan shamol va boshqa to‘siqlarga chap berib suzib o‘tmoq» ma’nosini anglatadi.

Bugungi kunda yangi ilmiy adabiyotlarda bu so‘z «xavf ostida qolmoq» degan yangi ma’noda qo‘llanilyapti. Mazkur tushuncha Rossiyada XIX asrning boshlarida tarqalgan. O‘zbekistonda ham Sobiq Ittifoq davrida qo‘llanilib kelingan va «tavakkalchilik» so‘zi ma’nosi bilan bir qatorda «xavf ostida qolmoq» ma’nosini ham bildiradi.

Shu o‘rinda turli lingvist (tilshunos) olimlar bu so‘zning ma’nosini izohlashda deyarli bir xil fikr bildirsalar-da, biroq ularning qarashlarida ayrim tafovutlar borligini aytib o‘tish joiz. Xususan, V.Dal «риск» so‘zini tavakkal qilmoq, xavfli ish qilmoq, «рисковать» tushunchasini esa tavakkal qilish, biror ishni to‘g‘ri mo‘ljallab ko‘rmay qilish, dadillik, qat’iyat bilan ish tutmoq, ma’lum xatarga o‘zini urmoq deb izohlaydi.

S.Ojegov «риск» so‘zini sodir etilishi mumkin bo‘lgan tahlika yoki muvaffaqiyatli natija umidida tavakkalchilik qilish, tavakkal qilmoq, xavfli ishga qo‘l urmoq, «рисковать» so‘zini esa xavf-xatardan qo‘rqmay ish qilmoq kabi tasavvur qiladi.

S.Ushakov «риск» so‘zini biror zarar yetkazish xavfi bo‘lgan tahlika yoki har qanday zarar yetkazish ehtimolini tushunadi. «Bank risklari va ularni

kreditlash»² mavzusida doktorlik ishini himoya qilgan va monografiya chop etgan prof. Sh.Abdullayeva ham «риск» soʻzini tahlika, tahdid, tavakkal qilmoq, xavfli ish qilmoq deb, «рисковать» atamasini esa xavf ostida qoldirishga jurʼat etmoq deb talqin qiladi..

Risk - bu maʼlum maqsadni koʻzlagan holda olib borilayotgan faoliyat natijasiga boʻlgan ishonchsizlik, baʼzan qoniqarsiz tugashi natijasidagi yoʻqotishlardan iboratdir. Masalan, berilgan kredit boʻyicha toʻlovlarning amalga oshmasligi natijasida bank foydasining kamayishi, yoki berilgan kafolat xatlari boʻyicha toʻlovlarni amalga oshirishga toʻgʻri kelishi va shu bilan bir qatorda bankning resurs baʼzasining kamayishi. Risklar bank faoliyatida oʻlchash mumkin boʻlgan koʻrsatkichdir va ular doim bankning bajarayotgan operatsiyalardan olgan zarariga, yoʻqotgan daromadiga teng boʻladi. Risk va foydalilik oʻrtasidagi bogʻliqlikka eʼtibor beradigan boʻlgan, bank operatsiyalarining risklilik darajasi ortgan sayin uning foydaliligi ham ortib boradi va aksincha, riski kam jarayonlar oʻz navbatida kam daromad beruvchi operatsiyalar hisoblanadi.

Moliya-kredit lugʼatida bank riski “kredit muassalari tomonidan amalga oshiriluvchi bank operatsiyalari xarakretidan kelib chiquvchi zarar koʻrish xavfi”³ deb qaraladi. Bu taʼriflardan koʻrinib turibdiki, risk doimo noaniqlik bilan bogʻliq. Noaniqlik esa, oʻz navbatida, oldindan koʻra bilish qiyin yoki mumkin boʻlmagan voqealar bilan bogʻliq boʻladi. Bu voqealar ham ijobiy, ham salbiy natijalarga olib kelishiga sabab boʻlishi mumkin.

Masalan, bank faoliyatida risk bank foydasining koʻpayishi yoki kamayishiga, bank resurs bazasining koʻpayishi yoki kamayishiga, berilgan kreditlar boʻyicha toʻlanmagan qarzlarning koʻpayishi yoki kamayishiga, foizlarning toʻlanmasligi va boshqalarda oʻz aksini topishi mumkin. Demak, riskka borish uch xil natijaga olib kelishi mumkin: ijobiy (foyda koʻrish), salbiy (zarar koʻrish) yoki oʻzgarishsiz natija.

²) Abdullayeva Sh. Bank risklari va ularni kreditlash. – T.: Moliya, 2002.

³Финансово-кредитный словарь; В 3 т, 2-е изд., стереотип / гл.ред Н.В.Гаретовский, -М.: Финансы и статистика, 1994, -С,69

⁴“Bank tavakkalchiligi – bank faoliyatiga ta’sir qiluvchi iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy, siyosiy, texnologik ichki va (yoki) tashqi omillarga bog’liq bo’lgan holatlar natijasida bank faoliyatiga xos bo’lgan moliyaviy zararlar ko’rish va (yoki) bank likvidligi (bankm o’z majburiyatlarini vaqtida bajarish qobiliyati)ni to’liq yoki qisman yo’qotish xavfining mavjudligi”.

1-jadval

“Bank risklari va ularning turlari”⁵

№	Turlanish belgilari	Risk turlari
1	2	3
1.	Vujudga kelish sohasi bo’yicha	1. Ichki risklar: – tijorat banklari turi bo’yicha – mijozlar tarkibi bo’yicha – bank operatsiyalari turi bo’yicha – balansdan tashqari operatsiyalar bo’yicha – moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish bilan bog’liq operatsiyalar bo’yicha 2. Tashqi risklar: – siyosiy – ijtimoiy – tabiiy
2.	Qamrab olish darajasi bo’yicha	– makro darajadagi risklar – mego darajadagi risklar – mezo darajadagi risklar – mikro darajadagi risklar
3.	Ta’sir qilish vaqti bo’yicha	– retrospektiv risklar – joriy risklar – istiqbolli risklar
4.	Passiv operatsiyalar bo’yicha	– diversifikatsiya riski – inflatsiya riski – jamg’armalar riski – depozitlar riski – foiz stavkalarining o’zgarishi riski
5.	Aktiv operatsiyalar bo’yicha	– kredit riski – hisob-kitob risklari – kassa riski – bozor riski – valuta riski – lizing operatsiyalari riski – faktoring riski – investitsiya riski – bank portfeli riski

⁴O‘zbekistonRespublikasiMarkaziybankining2011 yil 7 maydagi 14/2-sonli “Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishga nisbatan qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi nizomi

⁵Y.Abdullayev, T.Qoraliyevavboshqalar. “Bank ishi”. O‘quv qo‘llanma. T: Iqtisod moliya. 2010. 404-405 b

		– kliring riski – barter riski
6.	Balansdan tashqari operatsiyalar bo'yicha	– bankrotlik riski – balanslashmagan likvidlik riski – foiz riski – foyda ololmaslik riski – suiste'mol riski yoki iqtisodiy bilim va tashkilotchilik darajasi riski
7.	Moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish bo'yicha	– operatsion va texnologik risklar – innovatsiya riski – bank xavfsizligi riski va boshqalar

«Банковский менеджмент» darsligi muallifi P.S. Rouz⁶ risklarga kengroq tushuncha berib, u bank risklarini quyidagi oltita asosiy turga ajratadi:

- kredit riski;
- foyda olmaslik riski;
- likvidlik riski;
- foiz riski;
- to'lay olmaslik riski;
- bozor (raqobat, talab va taklif, inflatsiya va h.k.) riski.

Bank uchun ikkinchi darajada bo'lgan risklar tarkibiga P.Rouz siyosiy, suiste'mol va valuta risklarini kiritadi.

Shunday qilib, bank faoliyati turli tuman risklarga bog'liq bo'lib, ular «Bank tomonidan berilgan kredit o'z vaqtida qaytib keladimi?», «Keyingi oyda depozitlar salmog'i oshadimi?», «Bank aksiyasining bahosi va bank foydasi oshadimi?», «Keyingi oyda (kvartalda) foiz stavkalari qanday bo'ladi, ular bank foydasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?» kabi ehtimollik, tavakkalchilik bilan bog'liq holda faoliyat olib boradilar. Shu holatlarning tahliliga asoslangan holda bank mablag'larni investitsiya qiladi, ijobiy natijaga erishishni maqsad qilib qo'yadi.

Kelib chiqish sabablariga ko'ra risklar ikkiga bo'linadi:

- sof (obyektiv) risklar;
- sun'iy (subyektiv) risklar.

⁶Рouz П. С. Банковский менеджмент . – М.: Delo LTD. 1995, стр.142

Sof risklar ko‘pincha obyektiv xarakterga ega bo‘ladi va salbiy («-» yoki «0») natijaga erishish ehtimolini bildiradi. Bu risklarga tabiiy, ekologik, transport va tijorat riskining bir qismi kiradi.

Sun‘iy risklar subyektiv xarakterga ega bo‘lib, nafaqat salbiy, shu bilan birgalikda ijobiy natijaga erishish ehtimolini bildiradi. Bu risklarning yuzaga kelishiga quyidagilar sabab bo‘ladi:

- bozor konyunkturasini yaxshi o‘rganmaslik;
- resurslarni jalb qilish va ularni joylashtirish sohasidagi ma’lumotlarning yetarli emasligi;
- kreditlanadigan loyiha, obyekt va mijozlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning to‘liq emasligi;
- tarmoqlar faoliyati xususiyatining inobatga olinmasligi;
- bankirlar yoki mijozlarning ongi, saviyasi mablag‘lardan foydalanish bo‘yicha bilim va maqsadlarning xilma-xilligi va boshqalar.

Bu sabablar risklarni iqtisodiy kategoriya sifatida subyektiv tomonlarni o‘zida ifoda etadi.

Bank faoliyati ikki asosiy risk turi – tizimli va tizimsiz risklarga duch kelishi mumkin. Har ikkala usul ham o‘zining tahlil qilinish va risk oldini olish usullariga ega.

Tizimli risklar umumiy iqtisodiy sharoitlar va makroiqtisodiy siyosat xossalaridan kelib chiqadi. Bank tizimining turg‘un rivojlanishi umuman iqtisodiyotning qanday holatda ekanligiga bog‘liq. Shuning uchun makroiqtisodiy, avvalambor, monetar siyosat va bank risklarini samarali boshqarish tizimli risklarni kamaytirish va oldini olish imkonini beradi.

Tizimsiz yoki nomuntazam risklar bank tizimida umumiy ahvol barqaror saqlangan holda ayrim olingan bankning moliyaviy ahvoli yomonlashish ehtimoligiga bog‘liq bo‘ladi. Bu risklar, o‘z navbatida, bank operatsiyalari va tadbirkorlik risklarini o‘z ichiga oladi.

Bank operatsiyalari bilan bog‘liq risklar ikki guruh – to‘lovga noqobillik va

likvidlik risklariga bo'linadi. Birinchi guruhga: kredit riski, foiz riski, bozor riski, valuta riski, investitsiya risklari kiradi.

Banklarda ko'pincha mijoz tanlashda yanglishish natijasida balanslashmagan likvidlik riski yuzaga keladi. Bunday risklar odatda iqtisodi beqaror bo'lgan korxonalarni kreditlashga ustunlik berilgan hollarda yuzaga keladi.

Balanslashmagan likvidlik riski bank boshqaruvi va xodimlar malakasining sayozligi, bank faoliyati nazoratining sust tashkil qilinishi, risklarni tartibga solishda qo'llaniladigan usullarning takomillashma-ganligi, ayrim olingan bank operatsiyalari yoki ularning guruhlari bo'yicha risklar koeffitsiyenti shkalalarini o'rnatishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar natijasida yuzaga keladi.

Bank faoliyati va uning natijalariga ta'sir etish omillariga qarab bank risklarini bir necha toifalarga bo'lish mumkin. Umumlash-tirgan holda ularni:

- past darajadagi risklar;
- o'rtacha darajadagi risklar;
- yuqori darajadagi risklarga bo'lish mumkin.

Risk darajalari bank faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va yo'qotishlarga sabab bo'luvchi jarayonlarning ehtimolligiga bog'liq bo'ladi. Ular koeffitsiyentlar yoki foizlarda ifodalanishi mumkin.

Mamlakatimiz bank tizimida risk toifalarining darajalanishi bank aktivlari bo'yicha risk darajalarini hisobga olgan holda guruhlanadi. hisoblash usuliga ko'ra risklar umumiy yoki yakka ko'rinishda hisoblanishi mumkin. Umumiy risk bank riskining umumiy hajmi, uning umumiy daromadi va likvidligi me'yorlariga asoslanib baholanadi yoki taxmin qilinadi.

Yakka ko'rinishdagi risk bankning ayrim operatsiyalari yoki ularning guruhlari bo'yicha risk koeffitsiyentlari shkalasi asosida baholanadi.

Ichki risklar bevosita bank faoliyati natijasida vujudga keladi. Bu risklar bank faoliyatiga sezilarli ta'sir qiluvchi risklar bo'lib, ular bankning o'z faoliyati, uning mijoz (qarzdor)lari yoki uning muayyan kontragentlari bilan bo'lgan faoliyatlariga bog'liq bo'ladi.

Bank rahbarlari, ularning tadbirkorligi, marketing strategiyasining

optimalligi, taktikaning to'g'ri ta'minlanganligi kabi omillar ichki risk darajasiga ta'sir qiluvchi omillardir.

Ichki risklar:

- bank operatsiyalarining xususiyati;
- bank mijozlarining tarkibi;
- tijorat banklarining turlari bo'yicha guruhlariga bo'linadi.

Tashqi risklar makromuhit darajasida yuzaga keladi. Ular bank faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi.

Tashqi risklarga juda ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi.

Ular tarkibida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy risklarni alohida ajratish lozim. Siyosiy risklar mamlakatdagi siyosiy vaziyat va davlatning faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Iqtisodiy risklar mamlakatdagi umumiy iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqadi.

Tashqi risklar urushlar, milliyalashtirish, chetga to'lovlarni taqiqlash, qarzlarni konsolidatsiyalash, embargo joriy qilish, importga litsenziyani bekor qilish, tabiiy ofatlar natijasida yuzaga keladigan yo'qotishlarni o'ziga jamlaydi. Bu risklarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular bank daromadiga, operatsiyalar samaradorligiga va umuman, bank kelajagiga katta zarar yetkazadi.

Bank operatsiyalari xususiyatiga ko'ra risklar quyidagi turlarga bo'linadi:

- balans operatsiyalari riski;
- balansdan tashqari operatsiyalar riski;
- moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish bilan bog'liq risklar.

Balans operatsiyalari riski o'z navbatida:

- bankning aktiv operatsiyalari riski;
- bankning passiv operatsiyalari riski;
- aktiv va passivlarni boshqarish sifati bilan bog'liq risklarga bo'linadi.

Balansdan tashqari operatsiyalar risklari, avvalo, mijozlarning majburiyatlari yuzasidan berilgan kafolatlar bo'yicha to'lov majburiyati yuzaga kelishi ehtimoli bilan bog'liq.

Bankning aktiv operatsiyalari risklari quyidagi turlarga bo'linadi (2-jadval).

“Bankning aktiv operatsiyalari risklari”⁷

№	Aktiv operatsiyalar risklari	Izoh
1.	Kredit riski	–bu risk mijoz tomonidan asosiy qarz summasini va kredit bo'yicha foizlarni to'lay olmaslik ehtimoli bo'lganda yuzaga keladi.
2.	Hisob-kitob risklari	–bu risklar bankning kelishilgan shartnoma bo'yicha mijozning talabiga binoan hisob-kitoblarni o'z vaqtida o'tkaza olmasligi sharoitida yuzaga keladi.
3.	Kassa risklari	–bu risklar bank kassasi orqali o'tuvchi naqd pullarni saqlanishi bilan bog'liq xavfli holatlar natijasida yuzaga chiqadi.
4.	Bozor riski	–bu risklar nisbiy bozor narxlari darajasining keskin o'zgarishi natijasida bank aktivlari haqiqiy qiymatining pasayishini anglatadi. Bu bozor narxlari nomaqbul o'zgarishi oqibatida ehtimoliy zarar ko'rilishi tufayli ro'y beradi.
5.	Valuta riski	– bu risk valuta almashtirish kursining o'zgarishi natijasida chet el valutasida olib boriladigan operatsiyalar bo'yicha yo'qotishlar yoki yuqori foyda olish ehtimolini ifodalaydi.
6.	Investitsiya riski	–bu risk qimmatli qog'oz emitentining moliyaviy holati yomonlashishi oqibatida investitsiyalar portfelining kamayishi yoki qo'yilgan mablag'larni yo'qotish riskini ifodalaydi.
7.	Lizing operatsiyalari bo'yicha risk	–bu risk ijarachining bankdan olgan mulkidan samarali foydalana olmasligi, shuningdek, shartnomada ko'rsatilgan to'lovni o'z vaqtida amalga oshira olmasligi natijasida yuzaga keladi.
8.	Faktoring operatsiyalari bo'yicha risk	–bu risk bankning uchinchi shaxsdan sotib olgan qarzdorning majburiyatlari bo'yicha to'lovni o'z vaqtida amalga oshira olmaslik natijasida yuzaga keladi.
9.	Bank portfeli riski	–bu risklar qimmatli qog'ozlarning ayrim turlari hamda ssudalarning barcha kategoriyalari bo'yicha zarar ko'rish ehtimolligi bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

⁷Y.Abdullayev, T.Qoraliyev va boshqalar. “Bank ishi”. O'quv qo'llanma. T: Iqtisod moliya. 2010. 410-411 b

Ma'lumki, banklar passiv operatsiyalar yordamida o'zining aktiv operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur resurslarni jalb qiladi. Bunda ustav kapitalini oshirish (tashkil etish) maqsadida banklar foydadan chegirmalar, boshqa yuridik shaxslardan kreditlar jalb qilish, depozit kabi passiv operatsiyalarni bajaradilar. Shu jarayonda, ya'ni aktiv operatsiyalarni resurslar bilan ta'minlashdek murakkab jarayonda passiv operatsiyalar risklari yuzaga keladi.

3-jadval

“Aktivlar va passivlarni boshqarish sifati bilan bog‘liq risklar”⁸

№	Risk turlari	Izoh
1.	Bankrotlik riski	- bu risk o'z kapitali va resurslarini yo'qotish oqibatida o'z majburiyatlari bo'yicha to'lovga layoqatsiz bo'lish va faoliyatni to'xtatish natijasida vujudga keladigan riskdir.
2.	Balanslashmagan likvidlik riski	- bu risk bankning resurs sifatida jalb qilgan mablag'lari bilan kreditga bergan mablag'lari summasi, muddati, foiz stavkasining darajasi bo'yicha mos kelmasligi tufayli yuzaga keladi.
3.	Foiz riski	- bu risk bankning kreditga bergan mablag'lari bo'yicha oladigan foiz stavkasiga nisbatan jalb qilgan resurslari bo'yicha yuqori stavkalar bilan to'lashga majbur bo'lgan holda yuzaga keladi.
4.	Foyda ololmaslik riski	- bu risk bankning o'z resurslarini yo'qotishi, ulardan samarali foydalana olmasligi natijasida yuzaga keladi.
5.	Suiiste'mol riski	- bu risk bank boshqaruvchilari, xodimlari yoki mijozlari o'z vazifalarini suiiste'mol qilib, shaxsiy manfaatlari yo'lida amaldagi qonunchilikka, bank faoliyatini tartibga solib turuvchi me'yoriy hujjatlar talablariga zid ravishda faoliyat ko'rsatishlari natijasida bank katta yo'qotishlarga uchrashi hatto, inqirozga uchrashi mumkin.
6.	Likvidlik riski	- bu risk bankning o'z majburiyatlari bo'yicha o'z vaqtida pul to'lashga qobil emasligi bilan bog'liq bo'lib, buning oqibatida majburiyatlar oshganda ham mablag' olish imkoni bo'lmaganligi sababli zarar ko'riladi.

⁸Y.Abdullayev, T.Qoraliyev va boshqalar. “Bank ishi”. O'quv qo'llanma. T: Iqtisod moliya. 2010. 410-411 b

**”Moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish
bilan bog‘liq risklar”⁹**

№	Risk turlari	Izoh
1.	Operatsion va texnologik risklar	- bu risklar bank texnika-texnologiyasida uchrab turadigan axborot tizimidagi uzilishlar, kompyuter tizimidagi yo‘qotishlar, hujjatlarning yo‘qotilishi, bank xodimlari faoliyatida yo‘l qo‘yilgan xatolar tufayli vujudga keladi.
2.	Innovatsiya riski	- bu risk ma’lum bir sabablar tufayli bankning innovatsiyaga yo‘llagan mablag‘lari mo‘ljallangan samara bermasa yoki yo‘qotilgan hollarda yuzaga keladi.
3.	Bank xavfsizligi riski	- bu risk bank binosi, undagi mavjud axborot g‘amlamasi, kompyuter tarmoqlarining xavfsizligi bilan bog‘liq omillar ta’sirida yuzaga keladi.

1.2 Bank risklarini aniqlash tartibi va ularni boshqarish yo‘llari

Bank amaliyotida muhim muammolardan biri – bu bank risklarini baholashdir. Uni to‘g‘ri baholash, uning ro‘y berishini o‘z vaqtida oldini olish bo‘yicha tegishli choralar ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Risklarni aniqlash ularning darajasini hisoblashdan boshlanadi.

Risk darajasi muayyan faoliyatda maqsad nimaga yo‘naltirilganiga qarab zararlar bo‘lishini yoki xo‘jalik subyektining faoliyat natijasi ma’lum bir yo‘qotishlar bilan tugashi yoki yuqori daromad olishi mumkinligini ifodalaydi. Ana shu risk darajasi va u bilan bog‘liq yo‘qotishlar ehtimolini aniqlashning bir necha usullari mavjud:

- ekspert (subyektiv) baholash usuli;
- statistik usul;
- tahliliy (kompleks) usul.

⁹ Y.Abdullayev, T.Qoraliyev va boshqalar. “Bank ishi”. O‘quv qo‘llanma. T: Iqtisod moliya. 2010. 413 b

Ekspert baholash usuli riskni tahlil qiluvchi iqtisodchi (ekspert)ning malaka darajasiga asoslanadi. Bunda bankning faoliyatida o'tkazilgan barcha operatsiyalar bo'yicha mavjud ma'lumotlar tahlil qilinib, imkoni boricha ko'proq yo'qotishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan operatsiyalar tahlilga jalb qilinadi. Shu jarayonda bankning o'zidagi, shuningdek, bo'lish ehtimoli bo'lgan yo'qotishlar va ularning davr oralig'i aniqlanadi:

$$Y = \frac{YH}{N}$$

Bu yerda:

Y – yo'qotishlar darajasi (koeffitsiyentda);

YH – yo'qotishlarga olib keluvchi holatlar soni;

N – tahlilga jalb qilingan holatlarning umumiy soni.

Formuladagi N bankning faqat yo'qotish, zararlarga olib kelishi mumkin bo'lgan operatsiyalarning sonini emas, balki barcha operatsiyalarni, jumladan, foyda keltiruvchi operatsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Yo'qotish darajasi $0 < Y < 1$ oralig'ida bo'ladi. «Y» qancha «0» ga yaqin bo'lsa, risk darajasi shuncha kichik bo'ladi. Agar «Y» qanchalik «1» soniga yaqin bo'lsa, risk darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Statistik usul ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar ehtimolini variatsiya koeffitsiyenti (V) ni hisoblash yordamida aniqlanadi:

$$V = \frac{\sigma \cdot 100}{\bar{x}}$$

Bu yerda:

$$\sigma = \sqrt{\frac{\sum (x - \bar{x})^2 n}{\sum n}},$$

ya'ni o'rtacha kvadratik farqlanish;

x – kuzatishga jalb qilingan operatsiyalar va ulardan kutilayotgan natija;

$\bar{x}$ – barcha operatsiyalarda kutilayotgan o'rtacha natija;

n – operatsiyalar soni.

Bu koeffitsiyent ham 0 dan 1 gacha o'zgarishda bo'ladi va u qanchalik yuqori bo'lsa, farqlanish yoki risk darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. "Prof. Sh. Abdullayeva ushbu koeffitsiyent darajasini baholashda quyidagi intervallardan foydalanishni tavsiya etadi."¹⁰⁾

0,10 gacha – kam (sezilarli bo'lmagan farqlanish);

0,10-0,25 – me'yorida yoki sezilarli farqlanish;

0,25 va undan yuqori – katta farqlanish.

Variatsiya koeffitsiyentining darajasi bank tomonidan amalga oshiradigan operatsiyalar bo'yicha risk darajasining past yoki yuqori bo'lishiga bog'liq. Ya'ni bankning operatsiyalari bo'yicha risk darajasi variatsiya koeffitsiyentiga to'g'ri proporsionaldir. Shu sababli bank o'z faoliyatida riskni kamaytirish va bank likvidligini oshirish uchun o'z mablag'larini farqlanishi eng kam bo'lgan operatsiyalar (variant)ga qo'yishga harakat qilishi kerak.

Tahliliy-kompleks usuli o'yinlar nazariyasini qo'llashga asoslanadi. U bankning nafaqat o'z harakatlarini, shuningdek, atrofidagi kontragentlarning ham amalga oshirishi mumkin bo'lgan barcha muqobil harakatlarini ko'rib chiqishni taqozo etadi. O'yinlar nazariyasi unsurlaridan foydalangan holda vazifalarni hal qilish jarayoni juda ulkan va murakkab bo'lib, juda ko'p vaqt sarflashni talab etadi.

Bank bo'yicha yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan risk darajasi yoki ko'rsatkichi (K_r) quyidagicha hisoblanadi:

$$K_r = \frac{\text{Ko'rilgan maksimal zararlar}}{\text{o'z mablag'lar}}$$

yoki,

$$K_r = \frac{\sum Z}{QM} \cdot E$$

Bu yerda:

K_r – bank bo'yicha yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan risk darajasi;

$\sum Z$ – shu bankning barcha operatsiyalar bo'yicha ko'rishi mumkin bo'lgan

¹⁰⁾ Abdullayeva Sh. Bank risklari va kreditlash.– T.: Moliya, 2002, 117-bet.

zararlar yig'indisi;

QM – bankning o'z mablag'lari;

E – bank tashqi risklarining me'yoriy koeffitsiyenti.

To'lovga qobiliyatsizlikning keng qo'llaniladigan quyidagi ko'rsatkichlari mavjud:

- aksiyadorlar sarmoyasi va riskli aktivlar nisbati;
- birlamchi kapitalning yalpi aktivlarga nisbati.

Riskli aktivlar – kreditlar va qimmatli qog'ozlar (naqd pullar, bino va inshootlar, hamda boshqa turli aktivlar bundan mustasno)dir.

Birlamchi aktivlar – bankning kreditlar bo'yicha barcha yo'qotishlarini qoplaydigan mablag'lardir.

Banklar mablag'lar yo'qligi tufayli to'lovga qobiliyatsizlik, moliyaviy va xo'jalik faoliyatini davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lmaslik riskidan ehtiyot bo'lishlari lozim. Agar bank berilgan kredit talabnomasini yaxshilab tahlil qilmasdan, juda katta miqdorda kreditlar bergan bo'lsa, ularning qaytmaslik ehtimoli mavjud bo'lsa, bunday «yomon» kreditlar bankka katta zarar keltirishi mumkin.

Bank jalb qilgan depozitlarni qaytarish yoki kredit berishi uchun mablag'larning yetishmaslik riskidan doimo xavotirda bo'ladi. Bunday risk muvozanatlanmagan likvidlik riski deb atalib, bunda bank o'zining naqd pulga bo'lgan talabini qondirish uchun juda yuqori foiz stavkasi bilan qo'shimcha depozit mablag'larini jalb qilishga majbur bo'ladi.

Bu esa, o'z navbatida, bank daromadi va kapitalining kamayib ketishiga sabab bo'ladi. Amaliyotda bunday risklar kamroq uchraydi. Chunki bank bunday risk kutilayotganini sezishi bilanoq, banklararo bozorga murojaat qiladi va o'z mavqeyini yaxshilab olishga harakat qiladi.

Bu risklar, avvalo, bank daromadiga ta'sir qilsa, ikkinchidan, bank resurslaridagi o'zgarishlarga hamda bank mijozlarining unga bo'lgan ishonchidagi o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatadi. Eng muhimi, bu riskning ortishi bankka nisbatan bank faoliyatini tartibga solib turuvchi organlarning qattiq

choralar ko‘rib turishiga sabab bo‘ladi.

Eng avvalo shuni ta’kidlash lozimki, bank faoliyatida gap riskdan umuman qochish to‘g‘risida emas, balki uni oldindan chama-lash, ko‘ra bilish va uni minimal darajaga tushirish haqida boradi. Risk-ni boshqarish o‘z oldiga aksariyat hollarda bankning o‘z mablag‘larining bir qismini yo‘qotish «xavfi», daromad ololmay qolish yoki moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish natijasida qo‘shimcha xarajatlarga yo‘l qo‘yib bo‘lsa-da, faoliyatni ijobiy natija bilan yakunlashni maqsad qilib qo‘yadi.

Umuman bank riskini boshqarish riskni yuzaga kelish ehtimolini xomcho‘t qilish, risk tufayli yuzaga keladigan noxush holatlarga yo‘l qo‘ymaslik yoki ularning ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi. Riskni boshqarish jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi (1-rasm).


Bank riskini boshqarish banklar faoliyatini chuqur bilish, ular bajaradigan operatsiyalarning samaradorligini aniqlay olish, bankning kredit, investitsiya, valuta siyosati va boshqa faoliyat turlari bo‘yicha optimal qarorlar qabul qilishga erishish, mijozlarning xo‘jalik faoliyati va ularning moliyaviy ahvoli, tarmoqlar faoliyatining xususiyatlarini mukammal bilishni talab etadi.

Bank risklarini boshqarishda muayyan tamoyillar va talablarga tayaniladi. Ular quyidagilardan iborat:

- o‘z kapitalidan ortiq summaga risk qilmaslik;
- kam daromad olish imkoniyatida risk qilishga intilmaslik;
- bir mijozga yoki bir-biri bilan bog‘liq qarzdorlar guruhiga berilgan yirik kreditlar ko‘pincha banklarning inqirozga sabab bo‘lishini unutmaslik;
- bir qarz oluvchiga beriladigan kredit miqdori bankning ustav kapitali miqdorining 10 foizidan yuqori bo‘lmasligini asos qilib olish;
- bank tomonidan beriladigan yirik kredit bank kapitalining birinchi darajasi miqdorining 10 foizidan oshmasligiga rioya qilish;
- bir qarz oluvchiga yoki o‘zaro bog‘liq qarz oluvchilar guruhiga to‘g‘ri

keluvchi maksimal miqdor bank kapitalining birinchi darajasi miqdorining 15 foizidan oshmasligini asos qilib olish;

– ishonchli (blankali) kreditlar bo'yicha maksimal risk miqdori bank kapitalining birinchi darajasi miqdorining 5 foizidan oshmasligiga rioya qilish;



1-rasm. Riskni boshqarish jarayoni.¹⁰

¹⁰Abdullayeva Sh. Bank risklari va ularni kreditlash. – T.: Moliya, 2002.

Shuni ta'kidlash lozimki, respublikamizda aksariyat banklar sohalar bo'yicha (Savdogarbank, Agrobank, Qishloqqurilishbank, Mikro kreditbank va h.k.) ixtisoslashgan banklar bo'lib, ularning kredit qo'yilmalarining asosiy qismi o'zi ixtisoslashgan sohalarga yo'naltiradi.

Bu yerda ham muayyan talab o'rnatilishi lozim. Prof. Sh.Abdullayevaning fikriga ko'ra, bank bir sohaga kredit berganda, shu soha uchun berilgan kreditlar ko'lami bank kredit portfelining 35 foizidan oshmasligi lozim. Bu ham kredit riskining oldini olishning omillaridan biri bo'lishi mumkin.

Bank risklarini boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda risklarning quyidagi asosiy turlariga e'tiborni qaratmoq lozim:

- depozitlarni shakllantirish riski;
- yangi faoliyat turi riski (masalan, faktoring operatsiyalar bo'yicha);
- lizing kelishuvi riski;
- qarzdorning o'z moliyaviy majburiyatlari yuzasidan bajarmagan faoliyati bilan bog'liq kredit riski;
- bozor foiz stavkalarining farqlanish ehtimoli bilan bog'liq foiz risklari;
- qimmatli qog'ozlarning qadrsizlanish ehtimoli bilan bog'liq bozor riski.

valuta kurslarining farqlanishi bilan bog'liq valuta risklari. Bank bunday riskka chet el valutasida turli xildagi operatsiyalar o'tkazish, valutarlar oldi-sotdisi, valutaviy kreditlar berish natijasida duch keladi.

Bank o'z faoliyatida mavjud riskni aniqlash, uni qabul qilish, uni kuzatib borish va uni boshqarish qobiliyatiga tayyor ekanligini o'z zimmasiga olishi lozim.

Risklar asosan quyidagi usullarni qo'llash yordamida boshqariladi (5-jadval).

Agar risklarning oldini olishning to'liq imkoniyati mavjud bo'lmasa, u holda oxirgi manba riskni qoplash hisoblanadi. Riskni qoplash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- banklar tomonidan umumiy va maxsus zaxira fondlarini tashkil qilish;
- ma'lum yig'indilarni zararlarga o'tkazish;

- kredit bo'yicha foizlar belgilashni to'xtatish va boshqalar.

Risklarni boshqarish daromad bilan risk o'rtasidagi optimal nisbatni topish, mavjud riskni minimallashtirishni o'z ichiga oladi.

5-jadval

«Risklarni boshqarish usullari»¹¹

№	Risklarni boshqarish usullari
1.	Diversifikatsiya siyosatini o'tkazish;
2.	Depozit sertifikatlarini joriy qilish;
3.	O'zgaruvchan, suzib yuruvchi foiz stavkalari asosida kredit berish;
4.	Kreditlarni va depozitlarni sug'urtalash;
5.	Garov asosida kreditlarni kengaytirish;
6.	Banklarning hisobga olish operatsiyalarini kengaytirish;
7.	Yirik kreditlarni faqat konsorsional asosda berish (banklararo bitimlarga asosan risklarni taqsimlash);
8.	Real shaxsiy kafolatlar asosida kreditlashni qo'llash;
9.	Tashqi risklar (tarmoq, tarmoqlararo, mintaqaviy va boshq.)ni hisobga olish;
10.	Bank mijozining moliyaviy ahvolini muntazam nazorat qilib borish, to'lovga layoqatliligi, reytingini baholab borish;
11.	Risklarni boshqarishda e'tiborga olish zarur bo'lgan tamoyillar va talablarga rioya qilish;
12.	Risklarni aniqlash usullari va ularning natijalarini risklarni boshqarishda keng qo'llash va h.k.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, foiz riski foiz stavkalarining o'zgaruvchanligi natijasida yuzaga kelib, bozor iqtisodiyotiga xos obyektiv hodisadir. Bank tuzilayotgan shartnomalar bo'yicha (kredit shartnomalari bo'yicha ham, depozit shartnomalari bo'yicha ham) foiz stavkalarini qayd etar ekan, ko'pincha shunday vaziyatga tushib qoladiki, bunda u yo qimmatlashgan resurslarni stavkalar moliya bozorlarining daromadlilik darajasi pastroq bo'lgan vaqtda belgilangan aktiv operatsiyalarni fondlash uchun sotib olish, yoxud ilgari sotib olinadigan qimmat resurslarini pasaygan stavkalar bo'yicha joylashtirish mumkin. Chunki uni joylashtirish muddati resurslar jalb etilgan muddatga

¹¹Y.Abdullayev, T.Qoraliyevavboshqalar. "Bank ishi". O'quv qo'llanma. T: Iqtisod moliya. 2010.

qaraganda kamroqdir.

Foiz xatarini boshqarishdan maqsad bozor foiz stavkalarini tebranishlarining bank rentabelligiga salbiy ta'sirni minimallashtirishdan iborat. Foiz stavkalarining o'zgarish xatari farqlantiruvchi xususiyati shundan iboratki, uning ta'siri bank uchun ham salbiy, ham ijobiy bo'lishi mumkin.

Foiz xatarini boshqarish bankni foiz shaklida sof foyda olish vazifalarini qo'yishga va bankning foiz xatariga qanchalik duch kelganligini chamalab ko'rishga majbur etadi. Buning uchun yo tafovutni tahlil qilish usuli (ing. GAP - uzilish, interval), yohud davomiylikni tahlil qilish usulidan foydalaniladi.

Bank portfelining shakllanish doirasida foiz stavkalari o'zgarish riskini boshqarishda ikki xil strategiya bo'lishi mumkin:

- foiz stavkalarining dinamikasini prognoz qilish;
- foiz stavkalari prognozlanayotgan o'zgarishining salbiy ta'sirini minimallashtirish maqsadida bank portfeli tuzilmasini o'zgartirish tadbirlarini o'tkazish.

Agar foiz stavkalarining o'zgarish tendensiyalarini oldindan aytib bo'lmasa yoki foiz stavkalari tartibsiz tebranib tursa, u holda tafovutni boshqarishning mudofaa strategiyasini qo'llash o'rinli bo'ladi. U bank portfelini boshqarishga passiv yondashishni bildirmaydi va bank operatsiyalarini boshqarishda g'oyaning yuksak faol bo'lishini talab qiladi.

Foiz riskini quyidagi usullar vositasida minimallashtirish mumkin:

1. Foiz riskini quyi bo'g'indagi tegishli sug'urta tashkilotiga o'tkazish yo'li bilan sug'urtalash.

2. Kreditlarni suzuvchi foiz stavkasida berish. Bu usul bankka berilgan kreditlarning foiz stavkasiga bozordagi foiz stavkalarining tebranishini hisobga olib tegishli o'zgartirishlar kiritishga imkoniyat beradi va bank ssuda foizining bozor normasining oshishi natijasida ko'rishi mumkin bo'lgan zararlardan qochish uchun sharoit yaratib beradi.

3. Muddatli kelishuvlar. Bank va mijoz o'rtasida belgilangan summa va o'rnatilgan foizda, ma'lum bir kelishilgan kunda ssuda bilan ta'minlash

to'g'risida maxsus forward bitimi imzolanadi. Bunday bitimni tuzish yordamida bank ssudalarni berish vaqtida bozor foiz stavkalarining tushib ketishi xavfidan o'zini himoyalaydi. Bunda ancha past to'lov evaziga kredit olgan mijoz yutadi.

4. Foizli fyuchers shartnomalari. Bu usul bozor foiz stavkalarining tebranishidagi spekulatsiya (chayqovchi)lar hamda foiz riskini qoplash uchun qo'llaniladi.

5. Foiz opsionlari. Bu opsion egasiga qat'iy o'rnatilgan bahoda kelgusida belgilangan kunda yoki ungacha qisqa muddatli depozit yoki ssudani sotish yoki sotib olish huquqini (majburiyat emas) beruvchi kelishuvdir.

6. Foiz svoplari. Bu usul bitta summaga, lekin turli shartlarda tuzilgan kredit majburiyatlari bo'yicha banklar o'rtasida bo'ladigan foiz to'lovlari almashinuvi bo'lib, foiz riskini minimallashtirishga bir qadar yordam berishi mumkin.

Bozor riskini quyidagi vositalar yordamida minimallashtirish mumkin:

1. Qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisiga tuzilgan fyuchers shart-nomalari. Ular shartnoma egalariga oldindan o'rnatilgan kurs bo'yicha qimmatli qog'ozlarni sotish yoki sotib olish huquqini beradi.

2. Fond opsionlari. Bu aksiyalarni (yoki boshqa qimmatli qog'ozlarni, agar ular fond birjasida aylanayotgan bo'lsa) kelishilgan muddat davomida sotish yoki xarid qilish huquqini beradi.

3. Investitsiya portfelining diversifikatsiyasi. Bu usul qimmatli qog'ozlarni qadrsizlanishdan himoya qilishning eng maqbul usulidir.

Shunday qilib, banklarning o'z faoliyatlari jarayonida duch keladigan turli xildagi risklarni pasaytirish usullari bo'yicha tadbirlarning ishlab chiqilishi risk sohasida bank strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunday turdagi operatsiyalarni bank o'z mablag'lari hisobidan ham yoki mijoz topshirig'iga asosan ham amalga oshiradi.

1.3 Banklarda risk menejmentining xorij tajribasi va Xalqaro Bazel qo‘mitasining bank risklari bo‘yicha talablari

Bank faoliyati natijalariga ta'sir etish darajasiga ko'ra bank risklarini bir nechta toifalarga bo'lish mumkin. Eng asosiy belgilariga ko'ra ular kichik, o'rtacha va to'la risklarga bo'linadi. Bank riskining darajasi bank yo'qotishlariga olib boruvchi voqealar ehtimoli bilan xarakterlanadi. Ular foizlarda yoki muayyan koeffitsiyentlarda ifodalanadi. Chet el tijorat banklari, jumladan, Britaniya banklari risklarni 5 toifaga ajratadi. Bular:

1. A toifa - kichik yoki nol risk;
2. B toifa - oddiy risk;
3. V toifa - oshgan risk;
4. G toifa - katta yoki yuqori risk;
5. D toifa - nomaqbul risk.

Bizda risk toifalarining darajalanishi bank aktivlarini risk darajasini hisobga olgan holda guruhlash ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Bank risklarini boshqarishda muayyan tamoyillar va talablarga tayaniladi. Xususan Xalqaro bank amaliyotida ular quyidagicha :

- biron bir qarz oluvchi bank asosiy kapitalining 10 foiz ekvivalentidan ortiqcha mablag' ololmaydi;
- bir tarmoqqa beriladigan kredit miqdori bankning umumiy portfelining 25 foizidan oshmasligi lozim;
- bir qarz oluvchiga to'g'ri keluvchi taxminiy risk (garovga qo'yilgan mulk baholangandan keyin) bank asosiy kapitalining 1 foizidan oshmasligi kerak.

Tijorat banklari bank tizimi moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari qabul qilishga o'tishi uchun risklarni boshqarishni xalqaro tajribaidan foydalanishni taqozo etadi. G'arb tizimining, shu jumladan anglo-sakson davlatlarining risklarni boshqarish bo'yicha muhim elementi bo'lib: aniq va hujjatlashtirilgan tamoyillar, bankning savdo siyosati bo'yicha qonun va

direktivlari, risklarni boshqarish, risklarni boshqarish bo'yicha bankning tijorat bo'linmalariga bog'liq bo'lmagan maxsus guruhlarini tashkil qilish, bozor va kredit risklari bo'yicha chegaralarni o'rnatish va ular bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarni nazorat qilish, shuningdek bankning alohida xizmatlari bo'yicha risklarni birlashtirish, bank rahbariyatini risklar bo'yicha axborotlardan boxabar qilish muddatlarini belgilash (tartib bo'yicha, kunlik), bankning tijorat bo'linmalaridan mustaqil bo'lgan risklarni barcha turlarini boshqarish bo'yicha ko'psonli bo'lmagan guruh tashlik etish, bankning tarkibiga kirmaydigan auditorlar tomonidan risklarni nazorat qilish va boshqarishning barcha elementlarini hisobga olgan holda doimiy ravishda tekshirib borish va boshqalar hisoblanadi.

Umuman olganda anglo-sakson davlatlarida risklarni boshqarishning klassik nazorat uslublari to'ldirib va murakkablashtirib boriladi. Oxirgi vaqtlarda shveytsariya banklari bu borada ma'lum yutuqlarga erishdilar. Shveytsariya banklari tomonidan ishlab chiqilgan risklarni boshqarish bo'yicha standartlar boshqa davlatlar uchun ham qo'llanilsa foydali bo'lishi mumkin. "G'arb davlatlari banklarida risklarni boshqarish bo'yicha asosan ikkita qo'mita faoliyat ko'rsatadi:"

- kredit risklari bo'yicha qo'mita
- bank aktiv va passivlarini boshqarish bo'yicha qo'mita"¹²

Kredit risklari bo'yicha ishlab chiqilgan siyosatni amaliyotda qo'llanilishida kredit bo'limi javobgar hisoblanadi.

Amaliyotlar bo'limi, qimmatbaho qog'ozlar bo'limi, xalqaro kredit va hisob-kitoblar, bank faoliyati tahlili va marketingi bo'yicha ishlab chiqilgan siyosatning amaliyotda qo'llanilishida bank aktiv va passivlarini boshqarish qo'mitasi javobgar hisoblanadi.

Kredit riskllarini boshqarish qo'mitasining asosiy funksiyalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

¹² www.risk-manage.ru

- kredit siyosatini va kreditlar reytingini ishlab chiqish va holatini monitoring qilish;
- yangi kreditlarni olish uchun uning kriteriyalarini ishlab chiqish;
- ssudalarga chegaralarni o‘rnatish;
- jami kredit portfeli risklarini doimiy baholab turish,
 - shuningdek ssudalar bo‘yicha yo‘qotishlar riskini, portfel likvidligini, barcha qarzdorliklarni nazorat qilishni bo‘yicha siyosat ishlab chiqish,
- tugallanmagan qarzdorliklarni yechish bo‘yicha siyosat ishlab chiqish,
- ishonchsiz qarzdorliklarni qaytarish bo‘yicha siyosat ishlab chiqish,
- kreditlarni muzlatish yechish bo‘yicha siyosat ishlab chiqish,
- kredit berishga rozilikni ko‘rib chiqish,
- kreditning bahosini aniqlashtirish bo‘yicha siyosat ishlab chiqish,
- Bankning ichki yo‘riqnomalarini yuridik hujjatlarga mosligini ko‘rib chiqish,
 - kreditlarni kengayishi yoki qisqarishi bo‘yicha siyosat ishlab chiqish, ularni sifatini oshirish,
- kredit ma‘muriyatini faoliyatini kriteriyalarini me‘zonlarini ishlab chiqish va boshqalar hisoblanadi.

Bank aktiv va passivlarini boshqarish bo‘yicha qo‘mitaning asosiy funksiyalari quyidagilar hisoblanadi:

- moliyaviy risklar bo‘yicha cheklovlarni ishlab chiqish;
 - foiz siyosatini ishlab chiqish;
 - valyutqa risklari bo‘yicha cheklovlarni ishlab chiqish
 - balansli operatsiyalari riski bo‘yicha cheklovlarni ishlab chiqish
 - qimmatbaho qog‘ozlar bilan bog‘liq bo‘lgan siyosatni ishlab chiqish
 - risk bo‘yicha qonun hujjatlariga amal qilinishini nazorat qilish
- bo‘yicha kriteriyalarni baholash va boshqalar hisoblanadi.

Kredit risklarini boshqarish qo‘mita va Bank aktiv va passivlarini boshqarish bo‘yicha qo‘mitalari risklarni boshqarish bo‘yicha siyosat maqsadini

aniqlashtirib oladilar va risklarni boshqarish bo'yicha bank ichki nizomlarini ishlab chiqadilar. Biroq, risklarni boshqarish bo'yicha eng zamonaviy xalqaro tajribalardan foydalanish, ularni boshqarish uslublarini qo'llanilishi banklarni yo'qotishlardan butkul xalos qilmaydi, albatta. Shuning uchun risklarni boshqarish bo'yicha o'zbekiston amaliyotida yangi, nisbatan egiluvan va takomillashgan modellar va uslublarini ishlab chiqishni doimo xorij tajribasini qo'llagan holda davom etmog'i lozim. Lekin o'zbekiston banklarinig bozor iqtisodiyotidagi milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish albatta maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bank faoliyatidagi risklar turli-tuman bo'lishi qaramay, risk menejmentini shakllantirishda Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan bank risklariga nisbatan belgilangan talab va risklar tasnifini hisobga olish maqsadga muvofiq. Chunki, Bazel qo'mitasi tomonidan keltirilgan risklarni boshqarish bo'yicha amaliy harakterga ega bo'lgan metodologiya shakllantirilgan.

Xususan, Bazel – II talablariga ko'ra, kapital yetarliligini hisoblashda kredit riskidan tashqari, bozor va operatsion risklar ham hisobga olinishi lozim. Shu boisdan, rivojlanayitgan davlatlarda bank kapitaliga nisbatan minimal talablarni belgilshda operatsion va bozor risklariga katta e'tibor qaratilmoqda.

1988 yilda Xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan bank kapitali yetarligiga doir kelishuv (Bazel I) ishlab chiqildi va unda kapital yetarliligini hisoblash maqsadida rugulyativ kapital (umumiy kapital) tushunchasi amaliyotga joriy qilindi. Regulyativ kapital asosiy va qo'shimcha kapitaldan tashkil topib, bank faoliyatini boshqarish va iqtisodiy me'yorlarning hisob-kitobini o'tkazish maqsadida hisoblash yo'li bilan aniqlanadigan bank kapitalidir.

Bazel qo'mitasi o'zining 35 yillik faoliyati davomida bank faoliyatining turli yo'naliashlari bo'yicha o'nlab hujjatlar chop etgan. Jumladan, bank nazoratini tashkil etish, kapital yetarliligini ta'minlash, muammoli va kuchsiz banklar bilan ishlash, bank boshqruvi va boshqa soxalarga oid hujjatlar ko'pgina davlatlar bank tizimi rivojlanishini ta'minlab kelmoqda. XXI asr boshiga kelib ko'pchiiik iqtisoschilar fikriga ko'ra hali ko'p umr kechirmagan Bazel I

zamonaviy bank ishi tarrahiyoti talablariga javob bermay qo'ydi. Chunki, so'nggi yillarda moya bozorida nobarqarorlikning o'sishi va ularda bank operatsiyalari aktivizatsiyasining oshib borishi bank risklarini baholashda ko'pgina risklarni qamrab oluvchi murakkab yondashuvni ishlab chiqishni talab etardi. Shu sabab, Bazel qo'mitasi 2004 yil iyun oyida kapital yetarliligi bo'yicha yangi kelishuv – Bazel II ni ishlab qildi.

2013 yil bo'yicha respublikamiz bank tizimida kapitalning yetarlilik darajasi 24,3 foizni tashkil etdi. Bu esa, Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan belgilangan xalqaro me'yordan 3 barobar yuqoridir.


Bazel II da yangilik sifatida quyidagilar kiritilgan:

- banklarning o'zlari tomonidan risklarni miqdoriy baholashga asoslangan yangi tizim yaratilgan;
- kelishuvda operatsion risk, ya'ni, ichki jarayonlar, xodimlar xatosi va tashqi hodisalardan zara ko'rish ehtimoli inobatga olingan;

Bazel II ning tuzilishi yuqoridagi –rasmda tasvirlangan. Undan ko'rinadiki, Bazel II tuzilishi 3 komponentdan iborat: bank kapitali miqdoriga talab, bozor dissiplinasi va bank nazorati. Asosiy ko'rsatkich, ya'ni umumiy kapital yetarliligi (H_1) o'zgarish – 8% ligicha qolgan.


Agar umumiy kapital yetarliligi 10% dan pastga tushsa, bankrotlik to'g'risida ogohlantiriladi, agar 8% dan tushsa (3 oy mobaynida) kredit tashkilot lisenziyasi chiqarib olinadi.

Bazel II da uch turdagi risklar, ya'ni, kredit, operatsion va bozor riski uchun kapital rezervlashtirilishi talab etiladi. Banklar risklarni baholashning oddiy yoki takomillashgan variantidan birini tanlashlari kerak bo'ladi (3-rasmga qarang). Nazorat organlari ruxsatisiz takomillashgan yondashuvdan oddiysiga o'tishga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston bank tizimida Bazel III standartlarini joriy etish kerak.



2-rasm “Bazel II kelishuvining xususiyatlari”¹³

¹³ International Convergence of Capital Measurement and Capital standards: Revised Framework-BCBS.-2004.-june.-www.bis.org



3- rasm. Bazel II kelishuviga muvofiq kapitalga bo'lgan talab va risklarni hisob-kitob qilishning alternativ yondashuvlari¹⁴

¹⁴International Convergence of Capital Measurement and Capital standards: Revised Framework-BCBS.-2004.-june.-www.bis.org

O'zbekiston bank tizimini xalqaro moliya bozorlari tomon integratsiyalashuvi va banklarda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini (BXXS) to'liq o'zlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga bank risklarini baholash va riskni boshqarish tizimini rivojlantirish hamda bank operatsiyalaridan arxnlarni shakllantirishning bank kapitaliga bo'lgan ta'sirini o'rganish, bank faoliyati samaradorligi, obro'yi va barqarorligining oshishiga olib keladi. Bazel III Markaziy Bank nazoratini rivojlantirib, ma'muriy usullarda riskka yo'naltirilgan (orientatsiyalashgan) usullarni qo'llashga hamda bank tizimi ochiqqligini ta'minlashga sharoit yaratadi. Ma'lumki O'zbekiston bank tizimining likvidlik darajasi Bazel qo'mitaning talablariga nisbatan 3 barobar yuqori. Shu sabablardan Bazel III standartlarini joriy etish bank tizimi ustidan nazoratini samaraliroq tarzda standartlarini joriy qilishga imkoniyat yaratadi.

Biroq Bazel III standartlarini o'zlashtirish jiddiy tayyorgarlik va katta xarajat talab etadi. Shuningdek, kerakli infratuzilmani shakllantirish uchun qonunchilik bazasini moslashtirish zarur bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda Bazel III banklarning kapitali adekvatligini risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish orqali ta'minlashga qaratilgan tamoyillarni va o'ziga xos bank nazorati tizimini aks ettiradi. Bazel III standartlarining amaliyotimizga joriy etilishi O'zbekiston bank tizimi rivojlanishida yangi bosqichni boshlab beradi.

II bob. BANK RISKLARINI BOSHQARISHNING AMALDAGI XOLATI TAXLILI. DAT "ASAKA" bank (OAJ) Toshkent viloyat filiali misolida.

2.1. Kredit risklarini boshqarishning amaldagi xolati va tahlili.

Iqtisodiy munosabatlarda kredit muhim o‘rin egallaydi. Kredit – foizda qaytarish sharti bilan vaqtincha foydalanish uchun pul yoki material mablag‘lari berish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar tizimidir.

Kredit riski yoki qarzni qaytarmaslik xavfi kreditoning kredit kelishuviga asosan kreditni o‘z vaqtida qaytarilishiga va kredit shartlarini bajara olishiga ishonchsizligidan kelib chiqadi. Kredit riski bank faoliyatida uchraydigan risklarning eng yirigidir.

Bu holat quyidagilarning ta’sirida vujudga kelishi mumkin.

a) tadbirkorlikda, iqtisodiy yoki siyosiy muhitda kutilmagan o‘zgarishlar yuz berishi natijasida qarzdorning pul tushumini kerakli darajada ta’minlay olmasligi;

b) kreditga qo‘yilgan garovning kelajakdagi qiymati va sifati bo‘lgan ishonchsizlik (narx o‘zgarishi, qo‘yilgan mulkning xoridorgirligi);

v) qarz oluvchining tadbirkorlik dunyosida obro‘zsiz bo‘lib qolishi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar banklarning risklarini boshqarish va ularni doim rejalashtirish, darajasini kamaytirish uchun doimiy ishlar olib borishga majbur etadi.

Kredit risklari tarkibiga quyidagi risklarni kiritish mumkin.

1. Kreditlik o‘z vaqtida qaytarmaslik bilan bog‘liq risk. Bu risk qarz oluvchining kredit shartnomasining shartlarini bajarmasligi, kreditni va kredit bo‘yicha foizlarni o‘z muddatida qaytarmasligi.

2. Likvidlik riski (to‘lovlarni muddatida o‘tkazmaslik riski)- bu risk kreditni va kredit bo‘yicha foizlarni o‘z muddatida qaytarmaslik natijasida bank mavjud mablag‘larining kamayishiga olib kelishi bilan bog‘liq.

3. Kreditni ta’minlash bilan bog‘liq risk. Bu risk yuqorida qayd etilgan risklar bilan chambarchas bog‘liq. Bu risk turi kredit uchun qo‘yilgan garovni

sotishdan tushgan mablagʻlarni berilgan kreditni qoplash uchun yyyetarli emasligi bilan bogʻliqdir, natijada bank oʻz talabini tula qondira olmaydi.

4. Qarz oluvchining ishbilarmonligi bilan bogʻliq risk. Bu risk korxonaning ish faoliyati bilan bogʻliq boʻlib (sotib olish, ishlab chiqarishi, sotish) uning hajmini investistion dastur va ishlab chiqaradigan mahsulot turi va sifati belgilanadi.

“Kapitalning takibiy qismlari bilan bogʻliq risklar. Bu riskni kapitalni tashkil etuvchi tarkibiy qismlari orasidagi nisbat belgilaydi.”¹⁶

Kredit riskining darajasi quyidagi omillarga bogʻliq.

- kredit faoliyatining maʼlum bir sohada markazlashuv darajasiga;
- oʻziga xos maʼlum qiyinchiliklarin boshidan kechirayotgan mijozlarga kredit va boshqa bank xizmatlarning kam turi toʻgʻri kelishi;
- bank faoliyatining kam oʻrganilgan, yangi, noanʼanaviy sohalarda markazlashuvi;
- kredit berish, qimmatli qogʻozlar portfelin shakllantirish boʻyicha bank siyosatiga xususiy va jiddiy oʻzgarishlar kiritish;
- yangi va yakinda jalb qilingan mijozlarni umumiy sonidagi foizi.
- qisqa vaqt ichida bank tomonidan amaliyotga juda koʻp xizmatlar kiritilishi (u vaqtda bankda salbiy talabalar koʻpayishi mumkin);
- bozorda sotilishi qiyin boʻlgan qimmatliklarni yoki qiymati tushadigan moddiy neʼmatlarni garov sifatida olish.

Qarz oluvchilarning moliyaviy koʻrsatkichlari, taʼminlanganlik qiymati barcha kredit hujjatlarining tahlilidan kelib chiqqan holda, kreditlar quyidagi tavakkalchilik guruhlariga kiritiladi:

- Tavakkalchilik darajasi kam boʻlgan kreditlar (tasniflanmaydigan kreditlar);
- Tavakkalchilik darajasi yuqori boʻlgan kreditlar;
- Tavakkalchilik darajasi chegaralangan kreditlar;

¹⁶ Шапкин А. С. "Экономические и финансовые риски". Учебник. - Изд. 3-е. - М.: Дашков и К, 2006.

– Qoidalaridan istisno tariqasida beriladigan kreditlar.

Bankning kredit faoliyati uni boshqa bank bo‘lmagan tashkilotlardan farqlovchi asosiy mezonlardan biridir. Jahon amaliyotidan ma’lumki, bank foydasining asosiy qismi kredit bilan bog‘liq. Shu sababli yirik kreditlarning qaytarilmasligi bankning sinishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Banklar faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilish, ehtimol qilinadigan risklarni minimallashtirish masalalaridan biri kredit risklari, ularning darajalarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, kredit riski deganda qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi shartlarining bajarilmasligi, ya’ni kredit summasining (qisman yoki to‘liq) va u bo‘yicha foizlarning shartnomada ko‘rsatilgan muddatlarda to‘lanmasligi tushuniladi. Kredit riskini aniqlashda quyidagi formulalardan juda keng foydalaniladi:

$$K_{r_1} = \frac{H_{bla}}{Ya_{kh} + L_{bm}}$$

$$K_{r_2} = \frac{H_{chk}}{S_{kh} + L_{bm}}$$

Bu yerda:

K_{r_1} va K_{r_2} – kredit riski darajalari;

H_{bla} – harakatda bo‘lmagan aktivlar;

Ya_{kh} – yalpi kredit hajmi;

S_{kh} – sof kredit hajmi;

L_{bm} – lizing bo‘yicha majburiyatlar;

H_{chk} – hisobdan chiqarilgan kreditlar.

Harakatda bo‘lmagan aktivlar – 90 kundan kam bo‘lmagan va undan ortiq muddat ichida daromad keltiruvchi aktivlar, shu jumladan, kredit qo‘yilmalari.

Hisobdan chiqarilgan kreditlar – bankka qaytarilishidan butunlay umid uzilgan va zararlar sifatida hisobdan chiqarilgan kreditlar.

Real kredit riskini aniqlash uchun, eng avvalo, kredit sarf qilinishi mo‘ljallanayotgan loyihani yashashga qobiliyatligi kafolatlanishi lozim. Agar

tahlil natijasida loyihaning kelajagi yaxshi deb topilsa, unda kredit uchun taklif qilinayotgan garovning sifati va bahosi tahlil qilinadi. Garovni tahlil qilish jarayonida risk darajasi aniqlanadi. Chunki garovning qiymati va hujjatlari muhim rol o'ynaydi.

Kredit riskining haqiqiy darajasi (K_{rh}) quyidagicha aniqlanadi:

$$K_r = \frac{TMK}{BK}$$

Bu yerda:

K_r – kredit riskining haqiqiy darajasi;

TMK – to'lanmagan kreditlar;

BK – berilgan kreditlar.

Kredit riskining haqiqiy darajasini aniqlashda risk koeffitsiyentidan foydalanish mumkin (8-jadval).

8-jadval

Risk koeffitsiyentini aniqlash tartibi¹⁷

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Variantlar	
			I	II
1.	Bankning o'z mablag'lari	mln. so'm	10000	60000
2.	Ehtimol qilinayotgan yo'qotishlarning maksimal summasi	mln.so'm	6000	24000
3.	Risk koeffitsiyenti (2q:1q)	koef.	0,6	0,4

Ko'rib turibmizki, II variant bo'yicha kapital qo'yish (yoki kredit berish) riski I variantga nisbatan 1,5 marta kam ($0,6:0,4=1,5$). Risk koeffitsiyentini to'g'ri taxminlash beriladigan kredit summasini optimal-lashtirish yo'llarini ishlab chiqishga, kredit risklarini minimallashtirishga yordam beradi.

Mijozning kreditga layoqatliligini aniqlash bosqichida beriladigan kredit bo'yicha risk darajasini quyidagi kreditlash jarayonini tavsiflovchi rasmga asoslanib xomcho't qilish mumkin (4-rasm).

Risksiz zonada yo'qotishlar yo'q, ya'ni uning darajasi «0»ga teng. Bu holda

¹⁷Y.Abdullayev, T.Qoraliyevavboshqalar. "Bank ishi". O'quv qo'llanma. T: Iqtisod moliya. 2010.

foyda darajasi yuqori bo‘ladi. Bo‘lishi ehtimol qilinadigan risk oldindan aniq bo‘lgan, yuqori darajada xavf tug‘dirmaydigan risk bo‘lib, uning darajasi sezilarsiz, doimo olinadigan foydadan past bo‘ladi.

Kritik risk zonasi yo‘qotishlar bo‘lish xavfi borligini ifodalaydi, olinadigan foydadan bir qismining biron jarayon uchun yo‘naltirilganligini va shu mablag‘larning qaytib kelishida xavf borligini ifodalaydi.

Risk tufayli yo‘qotishlar miqdori (summasi) ga qarab risk zonasini aniqlash mumkin (9-jadval).

9-jadval

“Risk zonalari”¹⁷

Yutuqlar	Yo‘qotishlar			
Yo‘qotishlar umuman yo‘q	Bo‘lishi ehtimol risklar zonasi	Kritik risk zonasi	Halokatli risk zonasi	Maksimum risk zonasi (yo‘qotishlar)
Risksiz zona	Tushum bo‘ladi	Yo‘qotish xavfi bor	Yo‘qotishlar bo‘lishi aniq	Mulkni ham yo‘qotish holati.
Foyda				

Halokatli risk aniq yo‘qotishlar muqarrarligini va bankning foydasi mulkiy zarar bilan yakunlanishini ifodalaydi.

Kreditlarni shu tariqa, ya’ni risk zonalari bo‘yicha turkumlash kreditning xavfli zonaga tushishining oldini olish, kredit risklarining darajasini kamaytirishga imkon yaratadi.

Banklar mablag‘lar yo‘qligi tufayli yuzaga keladigan to‘lovga qobiliyatsizlik, moliyaviy va xo‘jalik faoliyatini davom ettirish imkoniyatiga ega bo‘lmaslik kabi risklardan ehtiyot bo‘lishlari lozim. Agar bank berilgan kredit talabnomasini yaxshilab tahlil qilmas-dan, juda katta miqdorda kreditlar bergan bo‘lsa, ularning qaytmaslik ehtimoli mavjud bo‘lsa, bunday «yomon» kreditlar bankka katta zarar keltirishi mumkin.


Bundan tashqari, bank portfelining bozor narxi pasayib ketsa, uni sotishda bank katta yo‘qotishlarga uchraydi. Bankning moliyaviy ahvoli yomonlashib

¹⁷ Y.Abdullayev, T.Qoraliyevavboshqalar. “Bank ishi”. O‘quv qo‘llanma. T: Iqtisod moliya. 2010.

borayotganini bilgan investorlar va omonatchilar o'z mablag'larini qaytarib olishni boshlaydilar.

Bankning bunday ahvolga tushishi natijasida, bank faoliyatini tartibga soluvchi organlar uni to'lovga qobiliyatsiz deb e'lon qilishga majbur bo'ladilar.

Bankning inqirozga uchrashi nafaqat bank uchun, balki uning aksionerlari va omonatchilari uchun xam juda katta salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bunday banklarning aksiyalari bozorda juda past baholarda sotiladi va bank o'zining depozit sertifikatlariga yuqori foiz stavkalari o'rnatishga majbur bo'ladi.



4-rasm. Kreditlash jarayoni va riskli holatlarni aniqlash chizmasi.¹⁸

Bank amaliyotida kredit berish barcha operatsiyalar tarkibida eng salmoqli o'rinni egallaydi. Shu bois kredit riskini minimallashtirish bo'yicha

¹⁸Y.Abdullayev, T.Qoraliyevavboshqalar. "Bank ishi". O'quv qo'llanma. T: Iqtisod moliya. 2010.

chora-tadbirlarni ishlab chiqish o'ta dolzarb masala bo'lib qolaveradi. Bu tadbirlar qatoriga quyidagilar kiradi (10-jadval).

10-jadval

Kredit riskini kamaytirish usullari¹⁹

№	Riskni kamaytirish choralari	Izoh
1.	Mijozning kreditga layoqatliligini baholash	– Bu usul mijozning reytingini aniqlashni ko'zda tutadi. Qarzdorni baholash mezonlari har bir bank uchun qattiq individuallashtirilgan bo'lib, uning amaliyotdagi mavqeyidan kelib chiqishi va vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqilishi lozim.
2.	Bitta qarz oluvchiga beriladigan kreditning summasini kamaytirish	– Bu usul mijozning kreditga layoqatliligiga to'liq amin bo'lmagan hollarda qo'llaniladi.
3.	Kreditlarni sug'urtalash	– Kreditni sug'urtalash uning qaytmaslik riskini to'liq sug'urtalash bilan shug'ullanuvchi tashkilot zimmasiga yuklanishini nazarda tutadi.
4.	Etarli ta'minotni talab qilish	– Bu usul bankdan berilgan summaning qaytishini va foiz olinishini kafolatlaydi.
5.	Diskontli ssudalar berish	– Bu ssudalar unchalik katta bo'lmagan darajada kredit riskini pasaytirishga yordam beradi. Bunday usullarda kredit berish kreditga minimum to'lov olishni ta'minlaydi.

Kredit risklarining banklar uchun dolzarb muammoligi shundaki, kredit riski mavjud bo'lgan holda kreditor (bank) da qarz oluvchi tomonidan kredit shartnoma shartlarini, uning o'z majburiyatlarini belgilangan vaqtda bajara olish imkoniyatiga ishonchsizlik hosil bo'ladi. Ma'lumki, bank amaliyotida asosiy foyda berilgan kreditlar bo'yicha olinadigan foizlardam tashkil topadi. Qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlar bo'yicha foiz stavkasining yoki kreditning asosiy summasining o'z vaqtida to'lanmasligi yoki umuman to'lanmasligi bank foydasining kamayishi oqibatida bankning kelajakdagi mablag'lari salmog'ining tushib ketishiga olib keladi.

¹⁹Y.Abdullayev, T.Qoraliyevavboshqalar. "Bank ishi". O'quv qo'llanma. T: Iqtisod moliya. 2010.

**“DAT“Asaka” bank (OAJ) Toshkent viloyat filialining kredit
ko‘rsatkichlari dinamikasi”²⁰**

11-jadval


(mln so‘mda)

Yillar	Jami aktivlar	Kredit qo‘yilmalar	Umumiy aktivlardagi ulushi
01.01.2012	88657.7	24417.8	27.5 %
01.01.2013	111089.6	64958.5	58.5%
01.01.2014	161368.3	97240.6	60.3 %

Jadvalda qayd qilingan ma’lumotlardan ma’lum bo‘lmoqdaki, agar 2012 yilda kredit qo‘yilmalarni umumiy aktivlardagi ulushi 27,5 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2013 yil 1 yanvar holatiga uchbu ko‘rsatgich 58,5 % ni, 01.01.2014 holatiga esa 60,3 % ni tashkil qilmoqda. Ya’ni bank aktivlarining asosiy qismini kreditlar tashkil qilmoqda.

**DAT“Asaka” bank (OAJ) Toshkent viloyat filialida bank aktivlari va kreditlari
nisbati²¹**

(mln.so‘mda)



1-diagramma.

²⁰DAT“Asaka” bank (OAJ) Toshkent viloyat filialining moliyaviy ko‘rsatkichlari asosida tayyorlangan

²¹DAT“Asaka” bank (OAJ) Toshkent viloyat filialining moliyaviy ko‘rsatkichlari asosida tayyorlangan

Kredi risklarini kamaytirishning eng samarali yo'llaridan biri bankning kredit resurslarini yig'ish va ulardan foydalanish bo'yicha diversifikatsiya o'tkazishdir. "Diversifikatsiya" so'zi lotincha so'z bo'lib, "har xil", "turli-tumanlashtirish" degan ma'noni anglatadi.

Bank tizimi barqarorligini oshirish uchun iqtisodiyot sektorlari bo'yicha kreditlar taqsimotini muvofiqlashtirish lozim. 12-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki 2013 yil yakuni bo'yicha DAT "Asaka" bank (OAJ) Toshkent viloyat filialida birgina sanoat tarmog'iga jami iqtisodiyatga ajratilgankreditlarning 39.5 foizi to'g'ri kelgan. Filialda kredit faoliyatini 2012 yilga nisbatan sanoat sohasida kamayishi hisobiga qurilish, savdo va umumovqatlanish, qishloq xo'jaligi sohalariga mazkur faoliyat diversifikatsiyasining ko'payganligi ijobiy holat sifatida baholash mumkin.

12-jadval

"DAT "Asaka" bank (OAJ) Toshkent viloyat filiali jami kredit qo'yilmalarining iqtisodiyotning tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi"²²

Tasnifi	2013 yil miqdori	salmog'i %	2014 yil miqdori	salmog'I %
Transport va aloqa	4505,6	7,1	6028,9	6,2
Qurilish	5838,2	9,2	9529,6	9,8
Qishloq xo'jaligi	2855,7	4,5	5251,0	5,4
Savdo va umumiy ovqatlanish	6853,6	10,8	11279,9	11,6
Sanoat	26208,6	41,3	38410,0	39,5
Boshqa sektorlar	17197,4	27,1	24796,4	25,5
Jami kreditlar	64458,5	100	97240,6	100

²² DAT "Asaka" bank (OAJ) Toshkent viloyat filialining moliyaviy ko'rsatkichlari asosida tayyorlangan

2.2. Valyuta risklarini hamda foiz risklarini boshqarishning tahlili

Bank faoliyatida uchraydigan eng murakkab risklardan biri-foizli riskdir. Foizli risk bank foizlarini salbiy o'zgarish natijasida foizli marjani kamayishidir. Foizli marja-bu foizli daromadlar va foizli xarajatlar orasidagi farq hisoblanadi.

Bank foizli riski ham kreditor ham qarz oluvchi sifatida xali duchor bo'ladi. Kreditor sifatida bank uchun foizli stavkalarini o'sishi (resurslar) bo'yicha bank amalga oshirgan operatsiyada oladigan foydasini kamayishiga olib keladi.

Xuddi shunday o'zgarish, ya'ni jalb qilingan resurslar bo'yicha foiz stavkasini o'sishi bank uchun bu mablag'larning qimmatlashuviga olib keladi va bank zarar ko'radi.

Foizli riskni o'rganishda uni tarkibiy qismlarga bo'lib o'rganish mumkin.

1. Bazaviy risk. Bu risk foizni marjasini kamayishi jarayonida paydo bo'ladi. Odatda, bu holat depozit uchun to'lanadigan foiz stavkani kredit uchun oladigan foiz stavkalari bir-biriga nisbatan o'zgarsa paydo bo'ladi.

2. Qayta baholash riski. Buning asosiy sababi aktivlar va passivlar bo'yicha muddatlarning bir-birini to'g'ri kelmasligi.

Foiz stavkalarining o'zgarishi uzoq kelajagida ayrim effektlarni olib kelishi miqdor ham o'zgaradi. Asosiy effektlar turiga quyidagilar kiradi.

1. Foydaliligi o'zgarishi. Bu o'zgarishni asosiy e'tibor beriladir, chunki bu ishi asosiy ta'siri bankning moliyaviy ko'rsatkichlarida o'z aksini topadi.

2. Bankning iqtisodiy qiymatining o'zgarishi. Bankning itisodiy qiymati-bu balans va balansdan tashqari majburiyatlari bo'yicha sof pul okillarning joriyqiymati. Foizli risk esa bevosita pul kutilayotgan pul oqimlar qiymatiga ya'ni bankning iqtisodiy qiymatiga ta'smir etadi.

Boshqa bank risklari nisbatan foizli risk juda kam urganiladi. Buning asosiy sabablari uning juda murakkabligi. Foizli riski ham o'lchash, ham nazorat qilish uchun iqtisodiy matematik modeli solish juda kiyin.

Oxirgi 20 yil davomida jahon iqtisodiyotida foiz stavkalarining juda yuqori beqarorligi kuzatilyapti. Shuning uchun foizli riskni nazorat qilish va boshqarish bank faoliyatining kredit riski bilan bir qatorda eng muhim vazifalariga kiradi.

Bank foizini nazorat qilishda va boshqarishda bank aktiv va passivlarini muddat bo'yicha solishtirish, foizli pozitsiyasi tushunchasiga ega bo'lish juda muhim. Foizli pozitsiyani miqdoriy jihatdan o'lchash - uni yoki mutlaq ko'rsatkichlarda (pul summasi) yoki nisbat ko'rsatkichlarda (kapital yoki aktivlar esa nisbatan) ko'rsatish mumkin.

“Manbai nuqtai nazardan foizli pozitsiya quyidagi turlarga bo'linib o'rganiladi.

I Strategik pozitsiya. Bu holat odatda bankning kreditlash va depozitlarni jalb etish jarayonida paydo bo'ladi.

II Taktik pozitsiya. Bu holat odatda bankning pul bozorida mablag'larni jalb etish va joylashtirish jarayonida paydo bo'ladi.

III Savdo pozitsiyasi. Bu holat odatda bank chayqovchilik maqsadida pul bozorida yuqori likvidlik qisqa muddatli moliyaviy instrumentlari bilan juda qisqa muddat ichida (bir necha soatlardan to 1-2 sutkagacha) operatsiyalar o'tkazish natijasida paydo bo'ladi. Bunday operatsiyalar juda yuqori riskli bo'lganligi uchun ular bo'yicha nazorat juda kuchli bo'lishi va ish kuni oxirida ular bo'yicha pozitsiyalar yechilishi shart.”²³

Demak foizli risk bank faoliyatidagi eng muhim va murakkab risklardan biridir.

Shuning uchun foiz stavkalarining o'zgarishi bashorat etish va boshqarish muhim ahamiyati ega. Foizli stavkalar o'zgarishini bashorat etishda quyidagi tendensiyalarga e'tibor berish zarur:

- pul massasi o'sish suratlari o'sganda foiz stavkalar darajasi pasayadi;
- inflyatsiya sharoitida foiz stavkalar o'sadi.
- daramodlikni egri chizikning o'zgarishi qisqa muddatli foiz stavkalarining o'sishi yoki pasayishidan dalolat beradi.

²³Грюшинг Х. В., Братонович С. "Анализ банковских рисков. Система оценки корпоративного управления и управления финансовым риском". Пер с англ. Вспут.сл.д.э.н. К.Тагирбекова.- М.: Изд. ВесМир,2006.

Foizli stavkani tarkibi va foizli risk formulasi «Fisher modeli»deb ataladi va inflyastiyani o'zgarish tendensiyalarni aniqlashga imkon beradi.

Bozor foiz stavkasi = Real foiz stavkasi+Kutilayotgan inflyastiya darajasi +Risk miqdori

Foiz risklarining boshqarilishi aktiv va passivlarni boshqarilishidan tashkil topadi. Foiz risklarni boshqarishning bir necha tamoyillari mavjud. Bular quyidagilar:

1.Bankning foiz marjasi qancha yuqori bo'lsa, foiz risk darajasi shuncha past bo'ladi.

2. "Spred" tamoyili. Bunda olingan aktivlar bo'yicha o'rtacha tortilgan stavka va to'lakgan majburiyatlar bo'yicha o'rtacha tortilgan stavka o'rtasidagi farq tahlil qilinadi. Tahlil uchun ma'lumotlar odatda bankning statistik hisobotidan olinadi.

3.Bankning o'zgarmas va suzib yuruvchi foiz stavkalari bilan balansdan tashqari aktiv va passivlarni tahlil qilishdan iborat.

Foiz risklarining darajasi quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- aktivlar tuzilishidagi o'zgarish, shu jumladan kredit va investitsiyalarning hajmi, aktivlarning qayd qilingan va suzib yuruvchi stavkalarda, ularning bozordagi narxining dinamikasi;

- passivlar tuzilishidagi o'zgarish, ya'ni shaxsiy va zayom mablag'larining mutanosibligi, muddatli va jamg'arma depozitlar;

- foiz stavkasi dinamikasi.

Foiz risklari darajasini boshqarish va nazorat qilish uchun bank faoliyatining aniq bir holatiga

Foizli riskni asosiy muammolaridan biri-unga baho berish va boshqarish. Foizli risk bank aktiv va passivlarni foiz stavkalari o'zgarishiga moyilligiga va bank portfelida aktiv va passivlarni balanslashganligi bilan bog'liq.

Foiz riskini boshqarish usullariga quyidagilar kiradi:

- bozor foiz stavkasi o'zgarishga qarab shartnomada ko'rsatilgan kredit bo'yicha foiz stavkasini o'zgarishi;

- aktiv va passivlarni foiz stavkani o'zgarishga moyiligi bo'yicha tasniflash;
- aktiv va passivlar orasidagi oraligni (GEP ni) baholash;

“Foiz riskining o'zgarishi foiz stavkasi o'zgarishiga moyil aktivlar va passivlar foizidagi oraliq ko'rsatkichida ham hisoblanadi;

$$GEP_k = AChP - PChP ;”$$

bu yerda

GEP_k - foiz stavkasi o'zgarishiga moyil aktiv va passivlar oralig'i;

PChP_k - foiz stavkasi o'zgarishiga moyil passivlar.

GEP ning nisbat ko'rsatkichi (%da):

$$GEP (\%) = \frac{AChP}{ChP} * 100\%$$

ChP

Foiz riskini o'rganishda SPRED degan ko'rsatkich ham hisoblanadi.

$$SPRED = i_A - i_P;$$

bu yerda:

i_A- daromad keltiruvchi aktivlar bo'yicha foiz stavkasining o'rtacha darajasi;

i_P - bank majburiyatlari bo'yicha to'langan o'rtacha foiz.

SPRED ni statistik usulda hisoblash esa

$$SPRED = \frac{\sum AChP * i_a : \sum PChP * i_p}{\sum AChP i_a \sum PChP}$$

Demak moliviy risklar ichidagi eng muhim va murakkab risklardan biri bu foizli risk.

Foizli riskni boshqarish uchun har xil usullar qo'llaniladi, lekin uning murakkab bo'lganligi uchun uni to'liq nazorat qilish uchun iqtisodiy modelni tuzish va formatlashtirish ancha mehnat talab etadi.

Bank aktiv va passivlarini boshqarish avvalo qisqa muddatni ko'zlaydi va bankning har kunlik faoliyati bilan bog'liq. Aktiv va passivlarni boshqarishdan asosiy maqsadi.

- daromadlilikni maksimallashtirish;
- risklarni minimallashtirish.

Aktivlar va passivlarni boshqarish moliyaviy risklar bilan bevosita bog'liq. Ham aktiv ham passiv operatsiyalari tegishli risk-likvidlik riski. Aktiv operatsiyalarda bu likvid aktivlarni sotish, passiv operatsiyalarda esa qisqa muddatda mablag'larni manbasini topishdir.

Disbalans usulining asosiy mazmuni -foizli stavkalar o'zgarishiga moyil aktivlardan foizli stavkalar o'zgarishiga moyil passivlarni ayirib tashlaymiz, ya'ni $S+k = AChP - PChP$;

bu yerda: $S+/-$ - sof qiymat

$AChP$ - foizli stavkalar o'zgarishiga moyil aktivlar;

$PChP$ - foizlar o'zgarishiga moyil passivlar.

Masalan:

12-jadval

" $AChP$ va $PChP$ bo'yicha bank operatsiyalari"²⁴

$AChP$ bo'yicha operatsiyalari	$PChP$ bo'yicha operatsiyalari
Berilgan kreditlar bank tomonidan	Jalb etilgan depozitlar
sotib olingan qimmatli qog'ozlar va	qimmatli qog'ozlar va majburiyatlar
majburiyatlar	emissiyasi jalb etilgan banklararo kreditlar
Berilgan banklararo kreditlar	Sotilgan xosilaviy majburiyatlar
Sotib olingan xosilaviy aktivlar	

²⁴ P. Saidxodjayev, I. Ismatullayev "Bank operatsiyalarini sug'urtalash". Ma'ruza matnlari. T:2012. TDIU.

“Foizli riskni boshqarish nuqtai nazardan uch xil holat bo‘lishi mumkin.”

1. AChP-PChP 0, ya’ni muddati bo‘yicha teng va foizlar o‘zgarishiga moyil passivlar qiymati xuddi shunday aktivlarga nisbatan ko‘prok.

2. AChP-PChP 0.

Bu holatda muddati bo‘yicha teng va foizlar o‘zgarishiga moyil aktivlar shunday passivlarga nisbatan ko‘proq.

Bu holatda foiz stavkalar ko‘tarilsa foizli daromad ko‘payadi, aksincha foiz stavkalari pasaysa, foizli daromad pasayadi.

3. AChP-PChPq0.

Bu holatda aktivlar passivlarga teng va foiz stavkalarining o‘zgarishi foizni daromadi ta’sir etmaydi.

Demak foiz stavkalari pasayishi natijasida GEP va aktiv va passivlar orasidagi nisbatan bank faoliyatida kerakli qarorlarni kaubl qilish va risklar oldini olish ya’ni ularni pasaytirish yo‘llarini tanlashga jalb etadi.

Aktivlar va passivlarni boshqarishda kullaniladigan disbalans usuli AT banki ma’lumotlari asosida kurib chiqamiz.

13-jadval

“Asaka” bank (OAJ) Toshkent viloyat filiali balansi ma’lumotlari
1.01.2014²⁵

(mln.so‘mda)

Jami aktiv va passivlar	30 kungacha	31 kungacha 90 kungacha	90 kungacha 360 kungacha	Ortiq	jami
A	1	2	3	4	5
Aktivlar kassa	105	-	-	-	105
qimmatli qog‘ozlar	250	80	110	450	900
Kreditlar	1660	360	370	510	2900
Bino va uskunalar	-	-	-	200	200
Jami aktivlar	2010	440	480	1170	4100
Passivlar jo-riy depozitlar	910	-	-	-	910

²⁵“Asaka” bank (OAJ) Toshkent viloyat filiali balansi ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

Jamg'arma depozitlar	120	-	-	-	120
Pul bozori depozitlari	735	-	-	-	735
Uzoq muddatli depozit	300	450	150	300	1200
A	1	2	3	4	5
qisqa muddatli zayomlar	400	-	-	-	400
Boshqa majburiyat	-	-	-	100	100
Kapital	-	-	-	700	700
Jami passivlar	2400	450	150	1100	4100
Disbalans	-390	-10	k330	k70	0
Jamg'arilgan disbalans	-390	-400	-70	0	
$\frac{APCh}{PChP} * 100\%$	89,8	97,7	320	106,4	

Birinchi va ikkinchi muddatlar bo'yicha foiz o'zgarishiga passivlar moyil, uchinchi va turtinchi muddatlar bo'yicha esa foizni o'zgarishga aktivlar moyil.

Endi AChP bo'yicha olinadigan foizlar 10 %ni, uzgarmas aktivlar bo'yicha foizlar 11 %, PChP bo'yicha foizlar 8 %ni, o'zgarmas passivlar bo'yicha foizlar-9 %ga o'zgarsa disbalans va bankning sof foizli marjasi orasida qanday bog'lanish mavjud.

14-jadval

Disbalans va sof foizli marja orasidagi bog'lanish²⁶

A	1	2	3	4
Umumiy foizli daromad	430,9	446,6	446,2	439,7
Umumiy foizli xarajat	345,0	364,5	367,5	358,0
Sof foizli daromad	86,0	82,1	78,7	81,3

²⁶ "Asaka" bank (OAJ) Toshkent viloyat filiali balansi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Endi foiz oʻzgarishga moyil aktivlar boʻyicha foiz stavkalari 2 %, foiz oʻzgarishiga moyil passivlar boʻyicha esa foiz stavkalari ham 2%ga oʻsgan boʻlsa, Yaʼni 12% va 10%, u holatda bankning foizli daromadi kaysi tomonga uzgaradi.

15-jadval

Foizlar oʻsishi natijasida disbalans va foizli daromadlar oʻrtasidagi bogʻlanish²⁷

A	1	2	3	4
Disbalans	-390	-10	k330	k70
Umumiy foizli daromad	471,1	455,4	455,8	462,7
Umumiy foizli xarajat	365,0	373,5	370,5	380,0
Sof foizli daromad	78,1	81,9	85,3	82,7
Daromad pasayadi	foiz stavkasi oʻssa	foiz stavkasi oʻssa	foiz stavkasi pasaysa	foiz stavkasi pasaysa

Demak disbalansning ishorasi va foiz stavkalari orasida quyidagi bogʻlanish mavjud. Disbalans, yaʼni $GEP < 0$, foiz stavkalari oshsa bankning foizli daromad pasayadi; aksincha $GEP > 0$, foiz stavkalarining oʻsishi bankning foizli daromadini oʻsishiga olib keladi.

Yaʼni aktiv va passivlarni boshqarishda ularni muddati boʻyicha oraligʻini oʻzgartirib foizli riskni oldini olish mumkin.

Buning uchun bank quyidagi prinsiplarga amal qilishi lozim.

- doimiy monitoring, risklarni baholash va nazorat etish, ishonchi maʼlumot tizimiga ega boʻlish;
- oʻz vaqtida (har kuni) bank rahbariyatini bozordagi ahvoldan xabardor etish.
- hisobotlarni doimiy nazorat etish.

²⁷“Asaka” bank (OAJ) Toshkent viloyat filiali balansi maʼlumotlari asosida tayyorlangan.

Tijorat banklarining kredit-depozit valuta operatsiyalari – bu erkin pul mablag‘larini joylashtirish, shuningdek turli muddatlarda muayyan foiz asosida xorijiy valutilarda yetishmaydigan mablag‘larni jalb qilish bo‘yicha qisqa muddatli (1 kundan 1 yilgacha) operatsiyalarning yig‘indisidir. Mazkur operatsiyalar banklar va kompaniyalarning qisqa muddali likvidligini ta’minlaydi va daromad olish maqsadiga xizmat qiladi.

Ingliz tilida bunday operatsiyalar bir atama bilan pul bozori operatsiyalari (Money Market Operations, yoki qisqa cha MM) deb nomlanadi.

Xalqaro atamashunoslik bo‘yicha pul bozorlarining kapital bozoridan farqi shundaki, pul bozoridagi operatsiyalar 1 yilgacha bo‘lgan muddatda amalga oshiriladi, kapitallar harakati esa 1 yildan ortiq muddatga egadir (Rossiyada 180 kundan ortiq).

Hozirgi kunda dunyoda yagona xalqaro pul bozori faoliyat yuritadi, u erda asosiy konvertirlanadigan valutarlar – AQSh dollari, Yevro, funt sterling, yapon ienasi, Shveystariya franki va b. valutarlar savdosi amalga oshiriladi. Biroq xalqaro pul bozorlaridagi 90 % kredit operatsiyalari asosiy valuta AQSh dollarida o‘tkaziladi.

Islohotlarning jadallashuvi va O‘zbekiston iqtisodiy va siyosiy vaziyatning yaxshilanib borishi munosabati bilan g‘arb banklari ishonch qozongan banklarga valuta depozitlarni tobora jadal sur‘atlarda joylashtirmoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov ta’kidlaganidek: «Hech kimga sir emaski, bugun keng ko‘lamda tarqalib borayotgan jahon moliyaviy inqirozining asosiy sabablaridan biri - bu banklar likvidligi, ya’ni to‘lov qobiliyatining zaifligi bilan bog‘liq muammoning keskinlashuvi, kredit bozoridagi tanglik, sodda qilib aytganda, pul mablag‘larining etishmasligi bilan izohlanadi»²⁸.

Pul bozorining depozitlari ko‘p hollarda 12 oyga (1 yilga) joylashtiriladi. Depozitlarni joylashtirishning asosiy muddatlari keltirilgan. Bunda haftaga

²⁸ Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. –T.: O‘zbekiston, 2009, 3b.

karrali muddatlar uchun depozitning tugash sanasini aniqlashda tugash sanasi valutalash sanasidan keyingi aniq xaftalar soniga suriladi, ya'ni aynan o'sha xafta kuniga to'g'ri keladi.

Oyga karrali muddatlar uchun depozitning tugash sanasi mohiyati jihatidan valutalash sanasiga to'g'ri keladi (masalan, valutalash sanasi 6 sentyabr bo'lgan bir oylik depozitning tugash sanasi 6 oktyabrga to'g'ri keladi). Amaliyotda depozit muddatini spot sanasidan hisoblash qabul qilingan, biroq ba'zida «ertaga» (from tomorrow), yoki hattoki «bugun» (from today) valutalash sanasi sharti asosida joylashtiriladigan depozitlar ham uchraydi, masalan: ertadan bir xaftalik depozit «tom-uik» (t/w).

Forvard shartnomalari bo'yicha standart hisob-kitob sanalari 1, 2, 3, 6, 9, 12 oy hisoblanadi. Ko'pchilik fond va valuta bozorlarida kelgusidagi kontraktlar 30, 60, 120 va shu kabi kunlarga, hamma vaqt keyingi forvard sanasigacha 30 kun qo'shilishi bilan, to'g'ri keladi, ya'ni kalendar oy tizimi qabul qilingan. Ammo, shartnomadagi ikkala tarafning manfaatdorligi holatida shartnomalarni tuzilishi turli boshqa muddatlarda ham amalga oshishi mumkin.

Shunday qilib, turli mamlakatlar o'rtasida shartnomalar amalga oshirilganda, oy oxiridagi spot sanasi forvard oylarining kunlarida bir qancha anglashmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shunday qilib jahon valuta bozorida amalga oshadigan operatsiyalarni barchasini 100% deb olsak, ularning 70 %dan ziyodi spot nomli operatsiyalarga to'g'ri keladi.

Spot operatsiyalari bu bir zumda amalga oshadigan valuta operatsiyasi bo'lib, sotuvchi sotgan valutasini sotib oluvchiga 2 bank ish kuni davomida, shartnoma tuzilgan kun kursi bo'yicha, yetkazishi lozim. Zamonaviy sharoitda, mazkur valuta operatsiyalarini amalga oshishi va valutani yetkazilishi 2 bank ish kunini talab etmaydi.

Valuta pozistiyasi – dilerni talab va majburiyatlarini nisbatidir. U ikki qismdan iborat, ya'ni “uzun” va “qisqa” pozistiyadan.

“Uzun” pozistiyada – dilerni talablari aks etadi. Talablar esa, diler

tomonidan valuta sotib olinganda xosil bo‘ladi.

“Qisqa” pozistiyada – dilerni majburiyatlari aks etadi. Majburiyatlar esa, diler tomonidan valuta sotilganda xosil bo‘ladi.

Agar, diler talablari majburiyatlaridan ko‘p bo‘lsa, unda valuta pozistiyasi “uzun” pozistiya bo‘yicha ochiq hisoblanadi.

Agar, dilerning majburiyatlari talablaridan ko‘p bo‘lsa, unda valuta pozistiyasi “qisqa” pozistiya bo‘yicha ochiq hisoblanadi. Dilerni talab va majburiyatlari o‘zaro teng bo‘lsa, unda valuta pozistiyasi epiq hisoblanadi.

Muddatli valuta operatsiyalari deb, valutilarni kelgusida yetkazib berish va ular bo‘yicha hisob-kitob qilish sharti bilan, shartnoma tuzish kuni kursi asosida, sotib olish yoki sotish tushuniladi. Ular odatda, valuta kursi o‘zgarishidan sug‘urta qilishda yoki chayqov foydasini olishda ishlatiladi.

“Banklararo muddatli valuta operatsiyalari «forvard» operatsiyalari deb ataladi. Forvard operatsiyalari – birjadan tashqari muddatli valuta operatsiyalari bo‘lib, kelishuv asosida, telefon yoki teleks orqali banklar va savdo-sanoat kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladi. 1984-yildan boshlab kredit (moliya) instrumentlari bilan operatsiyalar – ya’ni “kelgusida yetkazib berish to‘g‘risida kelishuv” (forward rate agreements), o‘tkazish amaliyati qllaniladi. Ular, bir yilgacha depozitlar bo‘yicha foizlar o‘zgarishi oqibatidagi kurilgan zararlarni o‘zaro qoplash bo‘yicha banklararo muddatli kelishuvlardan iborat bo‘lib, odatda 1 mln.-50 mln. AQSh dollari hajmidagi summalarga tuziladi.”²⁹ Muddatli operatsiyalarga forvard, fyuchers va opsiyon shartnomalari kiradi.

Muddatli operatsiyalarni amalga oshirishni ijobiy tomonlaridan biri shundaki, ular manbalar uchun katta imkoniyat beradi, ayniqsa forvard operatsiyasi o‘ziga xos (spetsifik) aktiv va passivlarga qarshi qaratilmagan bo‘lsa, spot operatsiyalari zudlik bilan amalga oshirilishi qoldirilishi lozim, oddiy forvard kontraktlari esa nazoratni amalga oshirish va korrektilrovkalarni qilish uchun vaqt qoldiradilar.

²⁹Tojiyev R.R. Xalqaro valuta-kredit munosabatlari: O‘quv qo‘llanma. – T.: Adabiyot jamg‘armasi. 2006.

Valutani forvardli kursi - bu, valutani kelgusida ma'lum sanada yetkazib berish sharti bilan, sotib olinishi (sotilishi) mumkin bo'lgan kursi.

Eksportchi va importchilar o'z milliy valutasida shartnoma tuzishga harakat qiladilar, chunki bunda ular valuta kursi o'zgarishi riskidan himoyalangan bo'ladilar. Agar, valuta shartnomasini ishtirokchisi xorijiy valutani ishlatishga majbur bo'lib qolsa, u albatta ushbu valuta kursini dinamikasini hisobga oladi. Bunda, importchi uchun kursi pasayish tendensiyasiga ega valutadan, eksportchi uchun esa kursi ko'tarilish tendensiyaga ega valutadan foydalanish qulay.

Valuta kurslari dinamikasi va muddatli shartnomadagi muvaqqat farqni to'g'ri prognozi valuta operatsiyalaridagi taraflarga kurs foydasini olish imkonini beradi.

Xalqaro savdo forvard yoki muddatli valuta shartnomalardan foydalanishni zarur qilib qo'yadi, chunki ular valuta risklaridan himoyalalanish imkonini beradilar. Subyektlar tashqi savdo kontraktlari bilan birgalikda valuta oldi-sottisi bo'yicha shartnoma ham tuzadilar.

Shu bilan birgalikda, xorijiy valutarlar bilan muddatli shartnomalarni zarurligi turli moliyaviy operatsiyalarni xedjinglash bilan ham asoslanadi:

- pul bozorlaridagi depozitlarga pul qo'yish; qimmatli qogozlarga investitsiyalar; xorijda filiallarga taqdim etilgan zayomlar; xorijiy valutada amalga oshirilgan to'g'rida-to'g'ri investitsiyalar va boshqa shu kabilar. Bular valuta aktivlari hisoblanib, taalluqli valutilarni muddatga sotish yo'li orqali xedjinglanishi kerak;

- xorijda, xorijiy valutada, kapitallar bozorida olingan zayomlar. Bular xorijiy valutadagi passivlarni tashkil etadi va bu holatda valuta riskini sugurta qilish taalluqli valutilarni muddatga sotib olish orqali amalga oshiriladi.

Muddatli valuta operatsiyalari konversion, sugurta va chayqov turlariga, shartli ravishda, bo'linishi mumkin. Keltirilgan operatsiyani xar bir turida chayqov elementi mavjud.

Kontrakt tuzilayotgan paytda, xorijiy va milliy valutilarni, to'lov valutasini valuta kursini extimolli o'zgarishi hisobga olinadi. Boshqacha qilib aytganda,

valuta risklari hisobga olinadi.

Agarda to'lov valutasining kursi ko'tarilsa, eksportchi uchun xorijiy valutada to'lov muddati kechiktirilgan schyotni berish manfaatli bo'ladi. Chunki tushumni milliy valutaga konversiya qilishda kurs nixoyatda qulay bo'ladi.

Agarda eksportchi tovarni to'lovi kechiktirilgan holda sotib, to'lov valutasini kursini pasayishidan xovotirda bo'lsa, u ko'rilishi ehtimolli bo'lgan zararni xorijiy valuta bilan muddatli shartnoma tuzish orqali sugurta qiladi. Bu holda eksportchi xorijiy valutani forvard shartlari asosida, importchidan tushumni olish muddatiga yetkazib berish sharti bilan sotadi. Bunda, xorijiy valutani milliy valutaga konversiyasi, valuta shartnomasini tuzish kuniga, forvard kursi asosida amalga oshadi.

Risklar qatoriga kiruvchi valuta riski yoki kurs o'zgarishi natijasida paydo bo'ladigan risk. O'z navbatida bank operatsiyalarining xalqarolashuvi bilan bog'liq. Bu risk banklar bilan bir qatorda chet el valutasida shartnomalarni amalga oshirayotgan iqtisodiy subyektlarining barchasiga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin. 1970- yillardan keyin qat'iy valuta kursining bekor kilinishi va uning o'rniga suzub yuruvchi kurs o'rnatilgandan boshlab valuta riskini boshqarish bo'yicha harakatlar boshlangan.

“Valuta riski o'z navbatida ikkiga bo'linadi:

1. Tijoriy - qarzdor o'z majburiyatlari bo'yicha to'lovni amalga oshira olmasligi bilan bog'liq risklar.

2. Konversion - Aniq operatsiyalar bo'yicha olinadigan valuta zararlari riski.”³⁰

Bu riskni oldini olish bo'yicha kullaniladigan eng ko'p tarqalgan usul bu “xedjerlash” va “svop” operatsiyalaridir. Xedjerlash - har qanday valuta riskiga ega bo'lgan shartnomalarni kompensatsiya qiluvchi valuta pozitsiyasi yaratishga qaratilgan. Valuta svopini paralel kreditlashga uxshatish mumkin, bunda ikki mamlakat hududida joylashgan ikki bank o'z mamlakatlari valutasida teng

³⁰Носкова И.Я. Валютные и финансовые операции. – М.:ЮНИТИ, 1998.

hisoblarda kredit beradi. Xalqoro operatsiyalarni amalga oshiraetgan banklar valuta riskini boshqarish bo'yicha ularni diversifikatsiyalashdan foydalanadilar va bu maqsadda forvard, fyuchers, valuta opsiionlari kabi operatsiyalardan foydalanadilar.

Umuman olganda bank faoliyatidagi risklarni kamaytirish maqsadida riskni diversifikatsiya qilish maqsadga muvofik hisoblanadi. Diversifikatsiya har xil ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- jami kredit xajmini o'zgartirmagan holda berilayotgan kreditlar summasini maydalashtirish orqali ko'proq mijozlarga berish.
- katta xajmdagi kreditlarni bir nechta bank uz ichida taksimlagan holda berish. Chet el banklari praktikasida bungan “ sindikatlash ” deyiladi. Kupincha yirik projeklarni kreditlashda jami risklar bir necha bank o'rtasida tarqatiladi
- berilgan kreditlar bo'yicha yetarli darajada ta'minot olish.


Yuqorida qayd etilgan holatlar banklarning risklarni boshqarish va ularni rejalashtirish uchun doimiy ishlar olib borishiga majbur etadi.

Bank risklarini boshqarish jarayonining vazifalarini belgilovchi 4 asosiy bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin: 1.Valuta risklarini tahlil qilish va baholash. Bank axborot manbalaridan risklarni va ular o'rtasidagi bog'liqliklarni o'rganib chiqishi hamda ularni nazorat qilinadigan va boshqariladigan risklarga ajratishi kerak. 2.Valuta riskini miqdorini aniqlash. Riskning miqdoriy ko'rsatkichini aniqlash ehtimoliy yo'qotishlar miqdorini aniqlashga va aktiv boshqarish instrumentlari vositasida risk darajasini shakllantirishga imkoniyat yaratadi.

3.Valuta risklarini boshqarish. Boshqariladigan risklar va ularning miqdori aniqlanganidan keyin, risklarini boshqarish metodologiyasi va strategiyasi ishlab chiqilishi zarur. Risklarni boshqarish ularni vujudga kelishining oldini olishga qaratilgani kabi, risklarning bank likvidliligi va rentabelligiga salbiy ta'siriga yo'l qo'yilmasligiga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.

4. Valuta risklarini samarali boshqarish ustidan nazorat. Risklarni boshqarish bo'yicha tadbirlar natijalari nazorat ostida bo'lishi lozim. Ushbu nazorat vujudga kelgan risk miqdorining rejalashtirilgan ko'rsatkichlardan chetlanishini aniqlashga qaratilgan bo'ladi.

Valuta risklarini boshqarish instrumentlari banklar tomonidan risklarini kelib chiqishi va ular bilan bog'liq salbiy xollarning oldini olish maqsadida alohida operatsiyalar miqyosida ishlatilishi bilan birga bank aktivlari portfeli miqyosida ham ishlatiladi.



5-rasm. Risklar tasniflanishi³¹

³¹ Abdullayeva Sh. Bank risklari va ularni kreditlash. – T.: Moliya, 2002.

2.3. Tijorat banklarining aktivlari va ular bilan bog'liq risklarni boshqarish tahlili

Tijorat banklari faoliyatida uning aktivlari va ular bilan bog'liq aktiv operatsiyalarining risklik darajasini aniqlash bu jarayonini boshqarib borish muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston tijorat banklarining aktivlari o'ziga xos belgilari: likvidlik darajasiga qarab, risk darajasiga va daromad keltirish darajasiga qarab bir necha guruhlariga bo'linadi.

Bank balansida aktivlar likvidlik darajasiga qarab aks ettiriladi va likvidlik darajasiga qarab ular quyidagi 3 guruhga bo'linadi.

1 guruh - yuqori likvidli aktivlar. Bularga:

- a) kassadagi va yo'ldagi naqd pullar, qimmatbaho toshlar, moneta, cheklar va boshqa pul hujjatlari;
- b) korschetdagi mablag' qoldiqlari;
- v) «Nostro» va «Vostro» schetlardagi qoldiqlar;
- g) majburiy rezervlar scheti bo'yicha mablag'lar qoldiYoi;
- d) qimmatli qog'ozlar, schetdagi mablag'lar qoldiYoi, xazina veksellari, davlat obligatsiyalari, URMB ning qimmatli qogo'zlari va obligatsiyalari.

2 guruh - likvid aktivlar. Bularga:

- a) berilgan kreditlar (jumladan banklararo ham);
- b) o'z investitsiyalari;
- v) boshqa qimmatli qogo'zlar;

3. guruh - nolikvid aktivlar. Bularga:

- a) muddati o'tgan ssudalar;
- b) muddati o'tgan foizlar;
- v) sud aralashuvi bilan o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan ssudalar;
- g) tugallanmagan ishlab chiqarish;
- d) asosiy vositalar.

Risklik darajasiga qarab aktivlar to'rt guruhga bo'linadi.

1 guruh - riskdan holi bo'lgan aktivlar.

Bularga: naqd pullar va boshqa kassa hujjatlari, MB dagi «Nostro», «Vostro» schetidagi mablag'lar, majburiy rezerv schetidagi mablag'lar, xazina veksellari, davlat obligatsiyalari, MB ning qimmatli qogozlari va obligatsiyalari.

2 guruh - kichik (minimal) riskli aktivlar. Bularga boshqa banklarning «Nostro», «Vostro korschetlaridagi olinishi lozim bo'lgan mablag'lar, evroobligatsiyalar, qisqa muddatli birinchi sinf ta'minlanganlikga ega bo'lgan kreditlar va boshqa hujjatlar. Bu aktivlar bo'yicha risk darajasi 20 %ga teng.

3-guruh - yuqori riskli aktivlar: boshqa banklarga berilgan kreditlar, boshqalar uchun bank bergan ggarov va kafolatlar. Bu aktivlar bo'yicha risk 50 % ga teng.

4-guruh - eng yuqori darajadagi (maksimal) riskli aktivlar: qimmatli qogozlar sotish va sotib olish scheti, sotib olingan veksellar, trast hujjatlar va akkreditivlar trattalari bo'yicha mijozlarning majburiyatlari, bankning to'lanmagan aksiyalari bo'yicha mijozlarning majburiyatlari, sud jarayonida bo'lgan kreditlar, akkreditivlar, forward, bank va banklararo sotish va sotib olish.

Bular bo'yicha risk darajasi maksimal bo'lib, u 100% ga teng bo'ladi.

“Asaka” bank (OAJ) Toshkent viloyat filiali balansi ma'lumotlari (17-jadval)dan ko'rinib turibdiki, yil boshiga bankning umumiy aktivlari 60,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Shundan 14 % (ya'ni 8,5 mlrd. so'mni) riskdan holi bo'lgan aktivlar, 68 % (41mlrd so'm)ni kam riskli aktivlar, 1% (0,6 mlrd. so'm) esa katta riskli aktivlarni, maksimal darajali riskli aktivlar 17,1% ni tashkil qiladi. Riskni inobatga olganda barcha aktivlar 18,8 mlrd. so'mni tashkil qilgan.

17-jadval

**”Asaka” bank (OAJ) Toshkent viloyat filiali bo’yicha riskka tortilgan
aktivlarni hisoblash³²**

(ming so’mda)

Ko’rsatkichlar	risk 0%	risk 20%	risk 50%	risk 100%
Aktivlar				
1. Naqd pullar va boshqa kassa hujjatlari	683502			
2. M.Bning Nostro korchetidan olishi lozim aktivlar	5928150			
3. M.Bning majburiy rezervlar schetidan olishi lozim aktivlar	237544			300970
4. Boshqa banklardan olinadigan aktivlar	1678797	1020766		
5. Korchet Nostro	246			
6. Xazina veksellari			447943	
7. Qimmatbaho metallar				4611503
8. Sotib olingan veksellar				39544
9. Boshqa banklarga berilgan kreditlar		3990879		358490
10. 1 sinf ta’minotga ega bo’lgan kreditlar				2878040
11. Topshiriqli ssudalar				2149420
12. Sud jarayonidagi kreditlar				
13. Investitsiyalar				
14. Bank binosi va aslaholar				
15. Boshqa aktivlar				
Jami aktivlar	8528239	40929745	447943	10337967
16. Berilgan garov va kafolatlar			207181	
17. Akkreditivlar				38515
18. Jami balansdan tashqari schetlar			207181	38515
19. Jami aktivlar	8528239	40929745	655124	10376482
20. Jami riskli aktivlar		8185949	327562	10376482
21. Jami riskni inobatga olgandagi aktivlar	18889993			

³² “Asaka” bank (OAJ) Toshkent viloyat filiali balansi ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

Daromad keltirishga qarab bank aktivlari: daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlarga bo'linadi.

Daromad keltiruvchi aktivlarga :

- a) Barcha berilgan kreditlar (jumladan banklar aro kreditlar)
- b) investitsiyalar (o'ziniki)
- v) xazina veksellari
- g) davlat obligatsiyalari
- d) qimmatli qog'ozlar.

Daromad keltirmaydigan aktivlar.

- a) pul aktivlari guruhi,
- b) asosiy vositalar
- v) kapital xarajatlar
- g) barcha moddiy aktivlar va boshqa aktivlar
- d) nomoddiy aktivlar.

Bu guruhda pul mablag'idan tashqari barcha aktivlar ham likvid aktivlarga kiradi.

2 guruh aktivlariga bank faoliyatida katta e'tibor berilishi lozim. Chunki bu guruhda aktivlarni sifatini pasaytiruvchi aktivlar, muddati kechiktirilgan, foizsiz ssudalar, muddati o'tgan ssudalar va foizlar to'lanmagan ijara va boshqalar bo'lishi mumkin. Bu aktivlar shartli NPA deb belgilanadi va ularning darajasi umumiy aktivlar hajmidan 3% dan oshmasligi lozim. Agar bu aktivlar miqdori 2 va undan ortiq marta o'rnatilgan normadan ko'p bo'lsa, bank faoliyati juda muammoli, uning kredit siyosati juda zaif deb baholanadi.

18-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki 2013 yilda 2012 yilga nisbatan bankning daromad keltiruvchi aktivlari 25,2 punktga oshgan, shunga muvofiq ravishda daromad keltirmaydigan aktivlar miqdori esa 1262 mln. so'mga kamaygan. Bu bankning moliyaviy ahvolining yaxshilanganligidan dalolat beradi.

18-jadval

Daromad keltirish darajasiga qarab Asaka” bank (OAJ) Toshkent viloyat filiali aktivlarini guruhlash³³

(mln.so'mda)

Aktivlar	01.01.2013	01.01.2014	Farq + -
Daromad keltiruvchi aktivlar	17353	52593	+ 35240
Summa, ming so'm	55	80,2	+ 25,2
Foiz			
Daromad keltirmaydigan aktivlar			
Summa, ming so'm	14224	1296	- 1262
Foiz	45	19,8	- 25,2
Jami	31577	65555	+ 33978

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, likvidlik darajasi bo'yicha ikkinchi guruh aktivlar asosiy o'rinni egallaydi va ularning salmoqi 69 %ni tashkil qiladi, yuqori likvid mablag'lar 14,6 %ni tashkil qilib ularning miqdori 1,4 marta o'sgan bo'lsa, uchinchi guruh aktivlar 16,4 %ni tashkil qilib yil davomida 1,3 marta o'sgan. Shu bilan birga birinchi va uchinchi guruh aktivlarining miqdori nisbatan mos ravishda 6,4% va 9,9% ga kamaygan.

19-jadval

Asaka” bank (OAJ) Toshkent viloyat filiali aktivlarining likvidlik darajasiga qarab guruhlanishi³⁴

Aktivlar	1.01.2013	1.01.2014	Farq +, -
Birinchi guruh aktivlar.			
Aktivlar summasi ming so'm	6614	9548	2934
foizda	21,0	14,6	- 6,4
Ikkinchi guruh aktivlar			
Aktivlar summasi ming so'm	16639	45270	28631
foizda	52,7	69,0	+ 16,3
Uchinchi guruh aktivlar			
Aktivlar summasi ming so'm	8324	10737	2413
Foizda	26,3	16,4	- 9,9
Jami: so'mda	31577	65555	33978
Foizda	100	100	-

³³ “Asaka” bank (OAJ) Toshkent viloyat filiali balansi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

³⁴ “Asaka” bank (OAJ) Toshkent viloyat filiali balansi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Tijorat banklari aktivlari bilan bog'liq bo'lgan risklar ichida kredit operatsiyalar bo'yicha risklar asosiy o'rinni egallaydi. Bu aktiv operatsiyalar bilan bog'liq bo'lib, bu risklarga berilgan kreditlar, hamda to'lov muddati kechiktirilgan ssudalar bo'yicha risklar kiradi.

Kredit riski nafaqat kredit obyektiga, balki kredit subyektiga yangicha yondashishi orqali ham o'sib boradi. Bu risk turi mijozning moliyaviy ahvoli ogirlashganda, ularning faoliyatida ko'zda tutilmagan kiynchilik va muammolar yuzaga kelganda, bozorda noqulay sharoit yuzaga kelgani sababli paydo bo'lishi mumkin. Xuddi shuning uchun ham har bir tijorat banki o'z aktivlarini joylashtirishni va uni boshqarish usullarini o'zi ishlab chiqmogi zarur. Ma'lumki, tijorat banklari aktivlarining qiymati va ulardan olinadigan foyda o'zgarib turishi mumkin. Aktivlar bilan bog'liq risklar aktivlar bahosining va ular bo'yicha olinadigan foyda miqdorining kamayishi aktivlar bo'yicha risklar salmog'ining oshishiga olib keladi.

Bu masalani aktivlarni to'g'ri diversifikatsiya qilish yo'li bilan xal qilish mumkin. Chunki ba'zi bir aktivlar bo'yicha ular qiymatini pasayishi boshqa aktivlar qiymatini o'sishi bilan qoplanishi va natijada bank aktivlarining umumiy qiymatlarini saqlab qolishi imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin.

Bank aktivlarining qiymatini va ulardan keladigan daromadlarni to'g'ri hisob-kitob qilib rejalashtirish bank faoliyatining samaradorligiga olib kelishi, aktivlar qiymatini noto'g'ri hisoblash, ularni joylashtirish bankning moliyaviy ahvolidagi qiyinchiliklar to'g'ridirishi mumkin. Shu sababli biz Germaniya bank tizimida aktivlarni boshqarish usullaridan foydalangan holda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatida uning aktivlarining yetakchi qismi bo'lgan kredit operatsiyalari bo'yicha ularning samaradorligini, berilgan kreditning bahosini aniqlash usulini ishlab chiqishni maqsad qilib o'yo'ydik.

Hozirgi kunda respublikamizning aksariyat tijorat banklari tomonidan kreditlar berishda shu kreditning bahosi qancha ekanligi aksariyat hollarda banklar tomonidan chuo'ur tahlil qilinmaydi.

Bozor iqtisodiyoti yuksak rivojlangan davlatlarda kreditning bahosini

belgilashda kreditning bozor bahosi hisobga olinadiyu, lekin kreditning mijozga beriladigan bahosini hisoblash bir necha bosqichlardan iborat bo‘ladi va tijorat banklari tomonidan bu ko‘rsatkich chuqur tahlil qilib hisoblab chiqiladi. Kreditning bahosini aniqlashdan asosiy maqsad bank tomonidan berilgan kreditning samaradorligiga erishgan holda, foyda olish va bank likvidligini ta’minlashdan iborat. Bu natija esa bank risklarini oldindan aniqlab, uning oldini olishga imkon yaratishi mumkin.

Tijorat banklarining faoliyatini tahlil qilish va aktivlar bahosini belgilashning asosi bo‘lib uning balansi hisoblanadi. Balans asosida tijorat banklarining faoliyatini tahlil qilishda bir marta bo‘ladigan xarajatlar yoki daromadlarni alohida hisobga olgan ma’kul deb hisoblaymiz.

Chunki bu bir martalik bo‘ladigan tushum yoki xarajat tijorat banki faoliyatining olib borilishi yoki uning likvidligi, samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmasligi mumkin.

Biz ularni neytral xarajatlar va neytral daromadlar deb atadik. Bularga nimalar kiradi?

Neytral xarajatlar:

- bir martalik to‘lovlar (yong‘in, pulni o‘g‘irlash va bosh);
- o‘tgan davrdagi foizlar bo‘yicha xarajatlar;
- bank biznesiga ta’luqli bo‘lmagan to‘lovlar (yordam ko‘rsatish).
- Neytral daromadlar:
- bir martalik tushumlar;
- o‘tgan davrdagi foizlar bo‘yicha tushumlar;
- bank biznesiga ta’luqli bo‘lmagan tushumlar (boshqa bank yordami, MB dan tushum).

Bular neytral xarajatlar va daromadlar bo‘lib, ular bankning asosiy moliyaviy faoliyatiga (uning daromad va xarajatlarga) ta’sir qilmasligi lozim.

Tijorat banklarining asosiy daromad keltiruvchi operatsiyalari bu - kredit operatsiyalaridir. Shu sababli bank kredit operatsiyalari bo‘yicha oladigan daromadi va u bo‘yicha risk darajasini aniqlashi lozim. Bank kreditlari bo‘yicha

oʻrtacha riskni aniqlab bu risk boʻyicha rezerv tashkil qilish toʻgʻrisida oʻylash kerak boʻladi. Agar bankning foydasi yuqori boʻlsa, rezervni ham koʻproq tashkil qilish imkoniyati boʻladi. Shuning uchun ham risk boʻyicha oʻrtacha koʻrsatkich olinib, shu koʻrsatkichga qarab rezerv tashkil qilish maqsadga muvofiq boʻladi.

Banklar kredit berishda avvalam bor oʻz kapitaliga toʻgʻri kelishi mumkin boʻlgan foiz stavkasini hisoblab chiqishlari lozim. Chunki bank kapitaliga toʻgʻri keluvchi foiz yoki (foyda) normasi bank likvidligini taʼminlashning asosi hisoblanadi. Bank kapitaliga toʻgʻri keluvchi foiz stavkasini hisoblashda bank qancha summada oʻz akstionerlariga dividend toʻlash majburiyatini olganini inobatga olishi lozim.

Masalan, tijorat bankining oʻz kapitali miqdori 400 mln. soʻm boʻlib, undan 100 mln.soʻm asosiy kapital, 300 mln. soʻm oʻoʻshimcha (jalb qilingan) kapital deylik. Reja boʻyicha tijorat banki 20 mln. soʻm, yaʼni xarajatlarning 70% akstionerlarga dividend toʻlash uchun moʻljallangan boʻlsin. Real talab bundan yuqori ham boʻlishi mumkin. Foydadan olinadigan soliq 30% ni tashkil qilsa - bu 8,571 ming soʻmga teng boʻladi. Agar bank boshqaruvi 20mln. soʻm akstionerlarga toʻlanadigan mablagʻni rezervga oʻtkazadigan boʻlsa, unda soliq stavkasi 45% gacha oshadi va u 16.363 ming soʻmni tashkil qiladi. Shundan kelib chiqqan holda bank qancha foyda olishni rejalashtirishi lozim?

Bank toʻlashi lozim boʻlgan dividend miqdori - 20 mln. soʻm

Foydadan olingan soliq miqdori - 8,571 mln.soʻm

Toʻlanmagan dividendning rezervga oʻtkazilishi - 20 mln. soʻm

Toʻlanmagan dividenddan soliq miqdori - 16,363 mln. soʻm

Boshqa turli soliqlar miqdori - 12,987 mln. soʻm

Jami: Bank oʻz faoliyatida erishishi lozim boʻlgan summa daromad - 77,921 mln. soʻm

Demak, tijorat banki samarali faoliyat koʻrsatishi uchun 77,921 mln.

soʻmlik daromad olishi lozim. Endi biz bu mablagʻni ishlashi uchun tijorat banki oʻzi amalga oshiradigan kredit operatsiyalari boʻyicha qanaqa foiz stavkasini oʻrnatishi lozimligini hisoblab chiqishimiz kerak. Hisob-kitoblar shuni koʻrsatadiki, yuqoridagi mablagʻni olish uchun tijorat banki kredit operatsiyalari boʻyicha yiliga $\left(\frac{77,921 \text{ i.} \dot{\text{e}}\text{f.} \times 100}{400 \text{ i.} \dot{\text{e}}\text{f.}} \right)$ 19,48% atrofida foiz stavkasini belgilashi lozim.

Bank mijozga kredit taklif qila turib oʻzi qancha miqdorda foydaga ega boʻlishini ehtimolini hisoblab chiqishi kerak. Buning uchun bank oʻzining asosiy xarajatlari (xodimlarga qilinadigan xarajatlar, ijara va boshqa xarajatlar) summasini va umumiy xarajatlar (elektroenergiya, boshqa mayda xarajatlar)ni hisoblab chiqishi lozim boʻladi.

Bank oʻzi beradigan kreditning samaradorlik darajasini aniqlash uchun bankda amalga oshiriladigan har bir operatsiya bilan bogʻliq xarajatlarni aniqlashi lozim. Bu esa har bir operatsiya uchun sarflanadigan vaqtni aniqlashni talab qiladi. Buning uchun banklarda har bir boʻlim xodimlari maʼlum bir turdagi operatsiyani amalga oshirishga qancha vaqt sarflanishini belgilab, yozib borishi lozim. Operatsiyani amalga oshirish uchun ketadigan vaqt aniq boʻlishi uchun bu jarayon 2-3 xafta, 1 oy davomida yozib borilishi: har bir operatsiya vaqti, minutlari yoki xronometrik yoʻl bilan sekundlarda oʻlchanishi lozim.

Masalan, biron bir boʻlimning xarajati 320 ming soʻm boʻlsa bank boʻyicha boshqa boʻlimlar xarajatlarini taqsimlash orqali shu boʻlimning oʻrtacha xarajatlar 422 ming soʻmga teng boʻlishi mumkin. Agar boʻlim maʼlum vaqtda 182 ta operatsiya amalga oshirgan boʻlsa, u holda bir operatsiyaning qiymati 2,32 soʻmga teng boʻladi. $(422 : 182)$. Faraz qilaylik, tijorat banki toʻrt xil faoliyati toʻrini amalga oshiradigan boʻlsin. Buni quyidagi shartli raqamlarda koʻrib chiqamiz. (20-jadval).

**To'rt xil faoliyat to'rini amalga oshirish sharoitida
bir operatsiya qiymatini hisoblash tartibi³⁵**

Operatsiya turlari 4-bo'lim bo'yicha	1 operatsiya uchun sarflangan vaqt (minut)	Ekvivalent son, z	Operatsiyalar soni, x	Birlik operatsiya hisobi, $x_1 qz \times x$
A	1,5	1	60000	6000
B	4,5	3	7000	21000
V	2,25	1,5	25000	37500
G	3	2	6000	12000
			98000	130500

Mazkur davri ichida bank bo'yicha elektroenergiya, suv, isitish va boshqalar bo'yicha umumiy xarajatlarning taqsimlanishi natijasida A operatsiya bo'yicha xarajat 122500 so'mni tashkil qilgan. Shundan kelib chiqqan holda birinchi bo'limga to'g'ri keluvchi operatsiyalarning bank bo'yicha qiymati 0,94 so'm.

$\left(\frac{122500}{130500}\right)$ ga teng bo'ladi. Bu summani har bir bo'lim bo'yicha belgilangan ekvivalent songa ko'paytirgan holda bo'lim bo'yicha bir operatsiyaning qiymatini aniqlash mumkin. Bank bo'yicha operatsiyaning qiymatini aniqlashda esa shu operatsiyalar qiymatining o'rtachasini ya'ni 1,88 so'mni olish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank faoliyati samaradorligiga qanday erishish mumkinligini hisoblab chiqish zaruriyati tug'iladi. Buning uchun bankning o'z kapitali evaziga olishni rejalashtirgan daromad summasi, bir operatsiya bo'yicha o'rtacha xarajatlar miqdori, kreditning bozor fond stavkasi va risk darajasi ko'rsatkichlarini to'g'ri aniqlab chiqish zarur bo'ladi. hisoblashni quyidagi ko'rsatkichlarga asoslangan holda amalga oshiramiz.

Kreditning bozor bahosi - 5,5%

Operatsiyani amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar - 0,3%

³⁵ P. Saidxodjayev, I. Ismatullayev "Bank operatsiyalarini sug'urtalash". Ma'ruza matnlari. T:2012. TDIU.

(Agar 1 yilga 100000 so'm kredit berilsa va bir operatsiya uchun xarajat 250 so'mni yoki $0,25\% = 0,3\%$ ni tashkil qilsa)

Risk (risk bilan bog'liq xarajatlar) darajasi.

O'tgan yilda qaytarilmagan kreditlar bo'yicha bu yilda $0,4\%$

$$\text{Risk darajasi} = \left(\frac{\text{Yo'qotoshlar}}{\text{berilgan kredi}} \right)$$

4. O'z kapitaliga % stavkasi.

Jahon amaliyoti bo'yicha bankda mavjud bo'lgan resurslarning 8% bankning o'z kapitalini tashkil qilishi lozim. Masalan, bank 100000 so'm kredit berishi uchun 8000 so'm o'z kapitaligi ega bo'lishi kerak.

Oldingi hisob-kitoblar bo'yicha bankning o'z kapitaliga to'g'ri keluvchi foiz stavkasi 20% ($19,48$)ni tashkil qilishidan kelib chiqadigan bo'lsak 8000 so'mlik kapital bo'yicha 20% - 1600 so'mni tashkil qiladi. Binobarin, kredit berganda bankning o'z kapitali bo'yicha qo'yiladigan foiz stavkasi $1,6\%$ ga teng bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda bank beradigan krediti bo'yicha $7,8\%$ stavka o'yo'yishi lozim ($5,5\% + 0,3\% + 0,4\% + 1,6$)

Bank kredit bo'yicha foiz stavkasini o'rnatishda mijozning moliyaviy ahvoli, uning ishlab chiqarish faoliyati natijalarini, oldingi olgan kreditlari bo'yicha qarz majburiyatlarini bajarish darajasini hisobga olib, risk bo'yicha o'z kapitali foiz stavkasini kamaytirishi (agar mijoz faoliyati ijobiy natijali bo'lsa) yoki oshirishi (agar yuqoridagi ko'rsatkichlar bo'yicha mijoz salbiy natijalarga ega bo'lsa) mumkin. Bank bergan krediti bo'yicha qancha samaradorlikka erishganligini aniqlash uchun barcha aktiv, passiv operatsiyalar, xizmatlar va boshqa vositachilik operatsiyalari bo'yicha oladigan daromadlar hisoblab chiqiladi. Shundan so'ng bank faoliyatining rentabellik darajasini aniqlanadi. Shu fikrimizni asosi sifatida quyidagi hisob-kitoblarni keltirmoqchimiz.

”Asaka” bank (OAJ) Toshkent viloyat filiali passivlari hajmi³⁶

(mln.so'mda)

	Passiv hajmi ming sum	Foiz to'lash b-n bog'liq xarajat-lari	Foiz stavkasi	Bozor foiz stavkasi	minim. rezerv ajratma (%)	Foiz oshishi-dan tushum	Hara-jat-lar	Qop-lash summasi (foyda)
Depozit-lar	30000	100	0,33	4,5	0,45	1116	280	836
Bank kapitali	50000	2000	4.00	5,0	0,35	325	200	125
Jamg'ar malar	60000	1800	3,00	5,5	0,275	1335	775	560
Jami	140000	3900				2776	1255	1521

23-jadval**Asaka” bank (OAJ) Toshkent viloyat filiali xizmat ko'rsatish sohasi hajmi³⁷**

(mln.so'mda)

	Tushu m	Ba'zi operatsiyalar bo'yicha xarajatlar	Qoplash summasi
Qimmatli qog'ozlar aylanishida	800	1500	- 700
To'lov oboroti	1200	500	700
Xalqaro valuta operatsiyalari	700	400	300
Jami	2700	2400	300

Endi bankning barcha faoliyat turlari bo'yicha natijalarni jamlab chiqadigan bo'lsak:

1. Aktiv operatsiyalar bo'yicha foyda, ya'ni qoplash summasi - 460 mln. so'm
2. Passiv operatsiyalar bo'yicha foyda, ya'ni qoplash summasi - 1521 mln. so'm
3. Vositachilik operatsiyalar bo'yicha foyda - 300 mln. so'm

”Asaka” bank (OAJ) Toshkent viloyat filiali banki foydasining umumiy summasi – 2281 mln. so'mga teng.

Bu ko'rsatkich ijobiy faoliyat natijasini ko'rsatsada, hali bank faoliyatining samaradorlik darajasini aniq ifoda qilmaydi. Amaliyotda ko'pincha banklar o'z

³⁶ “Asaka” bank (OAJ) Toshkent viloyat filiali balansi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

³⁷ “Asaka” bank (OAJ) Toshkent viloyat filiali balansi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

faoliyatining natijasiga baho berishda ular o'zlari olgan foydaning absolyut ko'rsatkichiga qarab faoliyatimizning natijasi ijobiy, ya'ni «N» summada foyda olish bilan hisobot yilni yakunladik, deb xulosa qiladilar. Lekin bank olgan «N» summadagi foyda uning haqiqatda qanday darajada rentabellik bilan ishlaganini ko'rsata olmaydi. Bizning fikrimizcha bank faoliyatining haqiqatda qanchalik samarali yakunlanganligini bilish uchun bankning o'z kapitaliga to'g'ri keluvchi foyda miqdorini, ya'ni bankning o'z kapitalining rentabellik darajasini aniqlash zarur.

Yuqorida keltirilgan Asaka" bank (OAJ) Toshkent viloyat filiali bo'yicha qisqa muddatli kreditlarning barchasi 70 000 mln. so'm, uzoq muddatli kreditlardan aytaylik, 50% (90 000 m. so'mdan) - 45 000 m. so'm to'lanish kerak bo'lsa, to'lanishi lozim bo'lgan kreditning umumiy hajmi - 115 000 m. so'mni tashkil qiladi. Oldin takidlaganimizdek bank faoliyatini boshqarish bo'yicha me'yorlarga asosan tijorat banklari bergan kreditning 8 % atrofida o'z kapitalining minimal miqdoriga ega bo'lishi kerak. Shu me'yorga asosan tijorat bankining ustav kapitalining minimal miqdori 9200 m. so'mga teng bo'ladi. Yuqoridagi ko'rsatkichlarga asosan endi tijorat bankining o'z kapitaliga to'g'ri keladigan foyda miqdorini yoki bank kapitalining rentabelligini aniqlashimiz mumkin. Bu ko'rsatkich bizning bankimiz misolida $(2281 (100\% \cdot 115000 (8\%)) - 24,79\%$ ga, ya'ni tijorat bankining kapitaliga to'g'ri keluvchi foyda 24,79% ga teng.

Biz shu ilmiy tadqiqotimizning boshida tijorat banki faoliyatini boshlashda o'z siyosatini ishlab chiqishi va kredit berishda o'z kapitaliga qo'yiladigan foiz stavkani hisob-kitob qilib chiqishi lozim, deb ta'kidlagan edik. Biz tahlil qilayotgan bank misolida uni hisoblab, bankning kapitaliga qo'yiladigan foiz stavka 20% ga teng bo'lganida u barcha o'z majburiyatlari bo'yicha qarzlarni to'lab foyda olishi mumkin ekanligini hisoblab, rejaga shu foiz stavkasini kiritish lozimligini ta'kidlab chiqqan edik. Xaqiqatda esa biz tahlil qilayotgan bankda o'z kapitaliga to'g'ri keluvchi foyda 24,79 % ni tashkil qildi. Bu albatta, bankning moliyaviy ahvolini, uning likvidligini, kredit potentsialini oshirishda

muhim omillardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bank aktivlari bo'yicha risklilik darajasini aniqlash bank faoliyatini samarali tashkil qilishning asosi hisoblanib, bank risklarini kamaytirishga olib kelishi mumkin.

III bob. BANK RISKLARINI BOSHQARISHNING SAMARADOR- LIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

3.1 Bank risklarini boshqarish bilan bog'liq muammolar

Respublikamizda islohotlarni yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida tijorat banklari oldiga muhim vazifalar qo'yilmoqda. Ayni paytda, banklarda risklarni boshqarishni samarali tashkil etish va bank tizimini barqarorligini oshirish va unga nisbatan aholi ishonchini mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu jihatdan ham bank tizimini yanada isloh qilishda risklarni boshqarishni takomillashtirishga e'tibor kuchaytirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi 1438-sonli "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, banklarda risklarini boshqarishni takomillashtirish borasida qator ustuvor yo'nalishlar, xususan, tijorat banklarining korporativ boshqaruvi tarkibida bank Kengashiga bevosita bo'ysunuvchi "Risklarni nazorat qilish" qo'mitasini majburiy tarzda joriy qilish, tijorat banklari kapitali tarkibida ularning inqiroz holatlari ta'siriga barqarorligini ta'minlaydigan barqarorlashtirish zaxiralarini yaratish, kapital yetarliliga qo'yilgan talablarni takomillashtirish, ehtimoliy zararlarni qoplashga zahiralarini shakllantirishni ko'zda tutgan Bazel qo'mitasining yangi yangi takliflarini bank nazorati tizimiga joriy qilish belgilandi.

Ta'kidlash lozimki, tijorat banklarida risklarni boshqarish strategiyasini shakllantirishda unga nisbatan me'yoriy tusdagi talablarning mavjudligi muhim sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2011 yil 7 maydagi 14/2 – sonli qaroriga asosan tasdiqlangan "Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomga muvofiq, bank faoliyati va uning atrofidagi muhitning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi, aniq ifodalangan va hujjatlashtirilgan risklarni boshqarish siyosatini ishlab chiqish talabi belgilangan. Biroq, risklarni

boshqarish siyosatining ustuvor yo'nalishlari, risklarni boshqarish strategiyalari, shuningdek, taktik choralari bo'yicha aniq talab va ko'rsatmalar belgilanmagan. Boshqacha aytganda, yuqoridagi Nizom umumiy tusga ega bo'lib, risklarning tarkibi va ularni boshqarish strategiyalari bo'yicha Markaziy bank pozitsiyasini o'zida to'liq ifoda etmagan.

Banklarda ko'pincha mijoz tanlashda yanglishish natijasida balanslashmagan likvidlik riski yuzaga keladi. Bunday risklar odatda iqtisodi beqaror bo'lgan korxonalarni kreditlashga ustunlik berilgan hollarda yuzaga keladi.

Balanslashmagan likvidlik riski bank boshqaruvi va xodimlar malakasining sayozligi, bank faoliyati nazoratining sust tashkil qilinishi, risklarni tartibga solishda qo'llaniladigan usullarning takomillashmaganligi, ayrim olingan bank operatsiyalari yoki ularning guruhlar bo'yicha risklar koeffitsiyenti shkalalarini o'rnatishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar natijasida yuzaga keladi.

Banklar mablag'lar yo'qligi tufayli to'lovga qobiliyatsizlik, moliyaviy va xo'jalik faoliyatini davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lmaslik riskidan ehtiyot bo'lishlari lozim. Agar bank berilgan kredit talabnomasini yaxshilab tahlil qilmasdan, juda katta miqdorda kreditlar bergan bo'lsa, ularning qaytmaslik ehtimoli mavjud bo'lsa, bunday «yomon» kreditlar bankka katta zarar keltirishi mumkin.

Bank foizli riski ham kreditor ham qarz oluvchi sifatida xali duchor bo'ladi. Kreditor sifatida bank uchun foizli stakvkalarini o'sishi (resurslar) bo'yicha bank amalga oshirgan operatsiyada oladigan foydasini kamayishiga olib keladi. Xuddi shunday o'zgarish, ya'ni jalb qilingan resurslar bo'yicha foiz stavkasini o'sishi bank uchun bu mablag'larning qimmatlashuviga olib keladi va bank zarar ko'radi.

Bankning aktiv va passivlarni boshqarishda asosiy muammo - bu foizli riskni oldini olish yoki uni kamaytirish. Buning uchun disbalans ya'ni sof qiymat usuli qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Banklarda foiz risklarini boshqarish va sug'urtalash imkoniyatlarini oshirish maqsadga muvofiq. Ayni paytda, respublikamiz banklari amaliyotida

foiz riskini boshqarishning “GAP” usulidan foydalanish yo‘lga qo‘yilmagan. Bundan tashqari, foiz riskini sug‘urtalashda foiz svoplarini qo‘llash imkoniyatidan foydalanilmayapti. Chunonchi, birgina 2014 yilnig birinchi choragi yakunlariga ko‘ra foiz svoplarinig nominal qiymati 553.9 trln. AQSH dollarini tashkil etgan

Bank kredit risklarini boshqarish uchun mustahkam ishlab chiqarish jarayoniga ega emaslar. Ko‘p uchraydigan kamchiliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- siyosiy izohning hujjat shaklida yozilganligining yo‘qligi;
- portfel to‘planishiga nisbatan cheklovlar yo‘qligi;
- kredit boshqaruvining ortiqcha markazlashuvi yoki markazlashmasligi;
- kreditlanayotgan tarmoqni yaxshi tahlil qilmaslik;
- qarz oluvchilarning yuzaki moliyaviy tahlili;
- mijozlar bilan tez-tez aloqalarning bo‘masligi;
- kreditlash jarayonini yetarlicha tekshirmaslik va muvozanatning yo‘qligi;
- qarzlarni ustidan nazoratning yo‘qligi;
- kredit sifatining yomonlashuvi oqibatida qarz quymatini oshirish imkoniyati yo‘qligi;
- qarzlarni hujjatlashtirish ustidan nazoratning yaxshi emasligi;
- qarz mablag‘laridan ko‘p foydalanish;
- kredit hujjatlarining to‘liqmasligi;
- kredit bo‘yicha zararlarni qoplash uchun rezervlarni shakllantirishda aktivlar va standartlarni guruhlariga ajratishning yo‘qligi;
- kredit jarayonini samarali nazorat qilish va audit qilishning yetishmasligi.

Bu kamchiliklar kredit portfelining zaiflashishiga ta’sir etib, o‘z ichiga bir tarmoqqa yoki xo‘jalik sektoriga yo‘naltirilgan kreditlarning to‘planib qolishiga, turib qolishiga, katta miqdordagi kredit portfelli, kredit bo‘yicha zaralar, to‘lovga qobiliyatsizlik va nolikvidlikni oladi. Shubha yo‘qki, ko‘pgina bozorlarda banklar shunday iqtisodiy sharoitlarda faoliyat ko‘rsatishadiki, bunda

kreditlarni sifatli boshqarishda ob'yektiv qiyinchiliklarga duch kelishadi, Bu esa kredit boshqaruvini kuchaytirish lozimligini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda respublikamizning aksariyat tijorat banklari tomonidan kreditlar berishda shu kreditning bahosi qancha ekanligi aksariyat hollarda banklar tomonidan chuo'ur tahlil qilinmaydi.

Bozor iqtisodiyoti yuksak rivojlangan davlatlarda kreditning bahosini belgilashda kreditning bozor bahosi hisobga olinadiyu, lekin kreditning mijozga beriladigan bahosini hisoblash bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi va tijorat banklari tomonidan bu ko'rsatkich chuo'ur tahlil qilib hisoblab chiqiladi. Kreditning bahosini aniqlashdan asosiy maqsad bank tamonidan berilgan kreditning samaradorligiga erishgan holda, foyda olish va bank likvidligini ta'minlashdan iborat. Bu natija esa bank risklarini oldindan aniqlab, uning oldini olishga imkon yaratishi mumkin.

Shuni ta'kidlash lozimki, respublikamizda aksariyat banklar sohalar bo'yicha (Savdogarbank, Agrobank, Qishloqqurilishbank, Mikro kreditbank va h.k.) ixtisoslashgan banklar bo'lib, ularning kredit qo'yilmalarining asosiy qismi o'zi ixtisoslashgan sohalarga yo'naltiradi. Bu yerda ham muayyan talab o'rnatilishi lozim. Prof. Sh.Abdullayevaning fikriga ko'ra, bank bir sohaga kredit berganda, shu soha uchun berilgan kreditlar ko'lami bank kredit portfelining 35 foizidan oshmasligi lozim. Bu ham kredit riskining oldini olishning omillaridan biri bo'lishi mumkin.

Kredit risklarining banklar uchun dolzarb muammoligi shundaki, kredit riski mavjud bo'lgan holda kreditor (bank) da qarz oluvchi tomonidan kredit shartnoma shartlarini, uning o'z majburiyatlarini belgilangan vaqtda bajara olish imkoniyatiga ishonchsizlik hosil bo'ladi. Ma'lumki, bank amaliyotida asosiy foyda berilgan kreditlar bo'yicha olinadigan foizlardam tashkil topadi. Qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlar bo'yicha foiz stavkasining yoki kreditning asosiy summasining o'z vaqtida to'lanmasligi yoki umuman to'lanmasligi bank foydasining kamayishi oqibatida bankning kelajakdagi mablag'lari salmog'ining tushib ketishiga olib keladi.

Bank tizimi barqarorligini oshirish uchun iqtisodiyot sektorlari bo'yicha kreditlar taqsimotini muvofiqlashtirish lozim. 2013 yil yakuni bo'yicha DAT "Asaka" bank (OAJ) Toshkent viloyat filialida birgina sanoat tarmog'iga jami iqtisodiyatga ajratilgan kreditlarning 39.5 foizi to'g'ri kelgan. Filialda kredit faoliyatini 2012 yilga nisbatan sanoat sohasida kamayishi hisobiga qurilish, savdo va umumovqatlanish, qishloq xo'jaligi sohalariga mazkur faoliyat diversifikatsiyasining ko'payganligi ijobiy holat sifatida baholash mumkin.

Umuman olganda, respublikamiz banklari faoliyatidagi risklarni boshqarish borasida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish, xalqaro standartlar asosida zamonaviy risk-menejment tizimini tashkil etish mamlakatimiz bank tizimi barqarorligini yanada mustaxkamlashga xizmat qiladi.

3.2. Bank risklarini boshqarish bilan bog'liq muammolar va ularni oldini olishni takomillashtirish

Bank faoliyatida risklar bilan bog'liq ekan, risklarni to'g'ri baholay olish, ularni sug'urtalash vositalaridan foydalanishni optimallashtirish, umuman olganda risk-menejment tizimini zamonaviy talablar asosida shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2011 yil 7 maydagi 14/2 – sonli qaroriga asosan tasdiqlangan "Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomga umumiy tusga ega ekanligini hisobga olga holda shuni ta'kidlash mumkinki, yaxlit strategiyani shakllantirishga nisbatan Markaziy bank talablari ishlab chiqilishi lozim. Bunda Bank kengashi risklarni boshqarish strategiyasini shakllantirish va nazorat qilish bo'yicha vakolatlari va majburiyatlarini oshirish lozim.

Risklarni boshqarish qo'mitasi tashkil etilishi va u faqat bank kengashiga bo'ysunishi belgilab qo'yilishi lozim. Risk bo'yicha ma'lumotlar bazasi va

hisobot shakllarini ishlab chiqish bank faoliyatida risklarni doimiy kuzatib borish va zaruriy chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari, foiz riskini boshqarish metodologiyasini yanada takomillashtirish maqsadida bank aktivlari va majburiyatlari bo'yicha foiz stavkasi o'zgarishiga moyillikni taqqoslashni ko'zda tutuvchi gap tahlilini o'tkazish amaliyotini joriy qilish zarur. Fikrimizcha, ushbu yo'nalish foiz riskiga moyillikning zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, foiz riskini VAR (value at risk – risk ostidagi qiymat) yordamida baholash metodologiyani yanada rivojlanishiga hissa qo'shadi. Bunday yondashuv tarixiy manbalarga asoslangan holda foiz riskini omillarini o'zgarish ehtimoli tahlilini ko'zda tutadi. Risk oqibatida yuzaga keladigan yo'qotishlar nuqtai-nazaridan ko'p miqdordagi ssenariylar ichidan eng yomoni tanlab olinib tahlil qilinadi. VAR ana shularning ko'p ssenariyli tahlili hisoblanadi.

Fikrimizcha, respublikamiz banklari risk-menejment tizimida kredit riskini samarali boshqarishni quyidagi yo'nalishlarda takomillashtirish maqsadga muvofiq:

- banklarda kredit riskini baholash uslubiyotini takomillashtirish. Hozrgi kunda banklarimizda kreditga layoqatlilikni baholashda moliyaviy koeffitsientlardan (qoplash, likvidlilik, muhtoriyat) foydalanish bilan cheklanib qolmoqda. Pul oqimlarini tahlil qilish, scoring, ichki reyting asosida baholash usullaridan bank amaliyotida risklarni baholashda keng foydalanish lozim.

- Respublika banklari kredit portfeli sifatini yanada oshirish. Mamlakatimiz bank tizimini kreditlardan ko'rilishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qoplash uchun tashkil etilgan maxsus zahiralarining jami bank aktivlariga nisbati ko'rsatkichi 2 barobarga ortiqni tashkil qilmoqda. Vaholanki, ushbu ko'rsatkichning maqbul darajasi 0.5 foizni tashkil etmog'i lozim.

- Kredit portfelining diversifikatsiyalanish darajasini oshirish. Hozigi kunda ko'pchlik yirik banklarning kredit portfeli tarkibida bir tarmoqqa ajratilgan kreditlar hajmi yuqori salmog'ni tashkil etmoqda. Bu holat banklar kredit portfeli riskining ortib borayotganligidan dalolat beradi

Ta'kidlash o'rinliki, tijorat banklari risk-menejment tizimida xorijiy valyutadagi majburiyatlarning sezilarli darajada oshishiga yo'l qo'ymaslik, valyuta risklarini samarali boshqarish bank barqarorligini ta'minlashda muhim ro'l o'ynaydi. Respublikamiz tijorat banklari kredit portfeli tarkibi tahlili ko'rsatishicha, milliy valyutaning devalvatsiyalanishi sharoitidaxorijiy valyutadagi kreditlarning umumiy kredit portfelidagi salmog'i sezilarli darajada pasaygan. Fikrimizcha, respublikamiz banklari faoliyatida operatsion risk darajasini tartibga solish amaliyotini takomillashtirish risk-menejmentni samarali tashkil etishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanishi zarur. Bank kredit faoliyatidagi operatsion risklarning joriy holatini boshqarish metodologiyasining tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kungacha respublikamiz bank amaliyotida operatsion risklarni muntazam aniqlash, o'lchash va ularni minimallashtirishni o'zida ifoda etuvchi operatsion risklarni boshqarishning kompleks konsepsiyasi amaliyotga joriy etilmagan.

Ayni paytda, tijorat banklari faoliyatida operatsion risklarni aniqlash va shu maqsadda zaruriy ma'lumotlar bazasini shakllantirish uchun banklar operatsion zararlar to'g'risidagi ma'lumotlarni doimiy yig'ib borishi, operatsion zararlar bo'yicha hisobot shaklini ishlab chiqishlari va ularni muntazam to'ldirib borishlari lozim.

Ta'kidlash joizki, banklardagi ichki operatsion risklar ma'lumotlari bazasi 3-5 yil davomidagi ma'lumotlarni jamlay olsagina, ulardan kelgusi risklarni aniqlashda foydalanish imkoniyati yuqori bo'ladi.

Fikrimizcha, mamlakatimiz bank amaliyotida operatsion risklarni o'lchashni takomillashtirishning quyidagi yo'nalishlarini taklif etish mumkin:

Baholash va tahlil qilishning sifat usullarini rivojlantirish yo'li bilan risklarni o'lchash usulini takomillashtirish.

Baholash obyektini kengaytirish yo'li bilan risklarni o'lchashni takomillashtirish. Kredit faoliyatining asosiy operatsion risklaridan biri sifatida hodimlar malakasi va bank jarayonlari sifatini baholash va tahlil qilishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Risكلarni minimallashtirish qo'shimcha usullaridan: funksiyalar outsorsingi va jarayonlar benchmarkingidan foydalanish. Tahlillar ko'rsatishicha, tijorat banklari outsorsing (ya'ni ma'lum bir funksiyalar va biznes jarayonlarni ushbu sohaga ixtisoslashgan chet kompaniyalariga xizmat ko'rsatishga berish) va jarayonlar benchmarkingi (ya'ni ushbu sohada "eng yaxshi amaliyot" ni doimiy izlash) kabi usullardan yetarli darajada foydalanmaydi. Shu bilan birga, mazkur usullar xorij amaliyotida keng qo'llaniladi va mamlakatimizda foydalanish uchun tavsiya etilishi mumkin.

Bundan tashqari tijorat banklarida operatsion riskni boshqarishni samarali tashkil etish maqsadida, birinchidan, operatsion risklarni boshqarishni tashkiliy jihatdan ikki bo'linga ajratish, ya'ni operatsion risklarni idora qilish bo'yicha bo'linma (axborot to'plash, monitoring va operatsion risklar tahlili uchun javob beradi) va biznes-jarayonlar metodologiyasi bo'yicha bo'linma (bir vaqtda yuz beradigan risklarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi va bank biznes jarayonlari tahlilini amalga oshiradi) faoliyatini tashkil etish; ikkinchidan, operatsion risklarning vujudga kelishini oldindan payqash tizimini ifodalaydigan operatsion risklar asosiy ko'rsatkichlarini ishlqab chiqish va joriy qilishda jarayonli yondashuvdan foydalanish lozim.

[Fikrimizcha, Bazel qo'mitasining risklarni boshqarishga nisbatan yangi tavsiyalarini respublikamiz bank tizimiga joriy etish uchun zaruriy shart-sharoitlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Mamlakatimiz xo'jali yurituvchi sub'yektlarida defolt xolatlarining yuz berishi va ularning qayd qilinishi, ularning moliyaviy barqarorligi bo'yicha ma'lumotlarning yetarli emasligi, ichki reyting xizmatlarining rivojlanmaganligi kabi omillar tijorat banklarininh Bazel qo'mitasining risklarni baholash bo'yicha takomillashgan yondashuvlarini joriy etish imkoniyatini cheklanishiga sabab bo'lmoqda.

Bazel talablarining joriy etilishi ma'lum axborot-statistika mahsulotlarini, xususan, moliyaviy holat, defolt monitoringi bo'yicha, kontragentlar, kredit riski va muddatli kategoriyalari bo'yicha, foiz stavkalari, tovarlarning bozor qiymati,

valyuta va fond qimmatliklari dinamikasi bo'yicha, kredit, bozor va operatsion risklar natijasida ko'rilgan moliyaviy yo'qotishlar bo'yicha zaruriy ma'lumotlar bazasini taqozo etadi.

Bundan tashqari, tijorat banklarining mijozlari – xo'jalik sub'yektlari tashqi reytinglarga ega emasligi bois, ular bo'yicha kredit riskini baholashda standart yondashuvdan foydalanish imkoniyati mavjud emas. Ayni paytda, mamlakatimiz suveren kredit reytingiga ega emasligi, qarz oluvchilar bo'yicha kredit riskini baholashda turli muzokarali holatlarni keltirib chiqaradi. Chunki Bazel talablariga ko'ra, tashqi kredit reytingiga ega bo'lmagan qarz oluvchilar mamlakat kredit reytingi darajasidan past bo'lmagan holda baholanishi mumkin.

Shuningdek, risklar bo'yicha yo'qotishlarni qoplash maqsadida tashkil etiladigan zaxiralarni tashkil etish, kreditlarni 100 foizdan ortiq bo'lgan riskka tortish bo'yicha talablarni ham joriy etish lozim. Biroq, bu talablar muddatli o'tgan kreditlarni salmog'i me'yoriy darajadan ortiq bo'lgan tijorat banklarining kapital bazasiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Ta'kidlash lozimki, Bazel-III sifatida talqin etilayotgan yangi tavsiyalarda bank kapital bazasini yanada barqaror elementlar hisobiga boyitish, riskka tortilgan aktivlarning 2.5 foizui miqdorida qo'shimcha yangi maxsus zaxira kapitalini shakllantirish tijorat banklariga nisbatan kapital yetarliligi talablarini oshishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ayni paytda, respublikamiz bank tizimida Bazel-II talablari ham to'liq joriy etilmagan. Kapital yetarliligi ko'rsatkichini hisoblashda esa bozor va operatsion risk hisobga olinmayotir. Vaholanki, Bazel-II talablariga ko'ra belgilanadigan 8 foizlik minimal kapital yetarliligi darajasi kredit riskiga tortilgan aktivlardan tashqari, bozor va operatsion risk hajmidan kelib chiqib belgilanadi. Shu boisdan, mamlakatimizda bank kapitali yetarliliga minimal talablarni belgilashda Bazel-II qoidalarini to'liq hisobga olish zarur.

Qolaversa, mamlakatimiz tijorat banklari asosiy kapitali tarkibida devalvatsiya zaxirasi va imtiyozli kreditlash fondi ham hisobga olinmoqdaki, bu Bazel talablariga mos kelmaydi.

Fikrimizcha, tijorat banklarining 90 kundan ortiq muddati o'tgan kreditlar bo'yicha maxsus zaxiralar kreditning so'ndirilmagan qismining 20 foizidan kam bo'lsa mazkur kreditni 150 foiz bilan riskka tortish amaliyotini joriy etish lozim. Bu holat bank rahbariyatining muammoli kreditlar bilan ishlash bo'yicha ma'suliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, tijorat banklarining korporativ boshqaruvi tarkibida bank kengashiga bevosita bo'ysunuvchi "Bank risklarini nazorat qilish" qo'mitasi tashkil etildi. Bizningcha, mazkur qo'mita faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun har bir tijorat bankida risklarni boshqarish bo'yicha quyidagi bo'linmalar ochilishi maqsadga muvofiq:

- bozor risklarini boshqarish bo'linmasi;
- kredit risklarini boshqarish bo'linmasi;
- operatsion risklarni boshqarish bo'linmasi

Ushbu bo'linmalarning tashkil etilishi bank faoliyatida muhim risklarni aniqlash va ularni muntazam nazorat qilish imkonini beradi. Ayni paytda, Bazel qo'mitasining kapital yetarliligiga nisbatan belgilaydigan minimal talablari ham kredit, bozor va operatsion risk darajasidan kelib chiqadi. Bu esa respublikamizda yuqorida risklarni hisobga olgan holda bank kapitali yetarligiga nisbatan zamonaviy talablarni joriy etish uchun ham zamin yaratadi.

Shunigdek, Markaziy bank tomonidan tijorat banklarida bozor risklarini boshqarishni tartibga soladigan me'yoriy hujjat ishlab chiqilishi lozim. Bundan tashqari, risklarni boshqarish tizimini ma'qullash va ichki nazorat tizimiga qo'shimcha ravishda tizim faoliyati samaradorligini muntazam baholab turish zarur. Shubhasizki, foiz risklarini boshqarish jarayoning barcha oldingi bosqishlari muhim sanaladi, biroq, aynan ko'rib chiqilayotgan risk omillari va turlarini tanlash hamda foiz riskini baholash asosiy hisoblanadi. Baholash noto'g'ri bo'lgan hollarda noto'g'ri boshqaruv qarorlari qabul qilinishi, foiz riskini boshqarishning nomaqbul strategiyasini tanlash mumkin bo'lib, bu kelgusida bankning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, respublikamiz banklari faoliyatida risklarni o'z vaqtida payqash, ularni kamaytirish choralarini ishlab chiqish va samarali boshqarish bank tizimi moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xususan, 2014 yilda respublika bank tizimining barqarorligini yanada oshirish va xalqaro andozalarga muvofiq rivojlanishini ta'minlash hamda yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi rolini kengaytirishga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan:

1. Bank tizimi barqarorligini yanada oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar doirasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini xalqaro talablar, jumladan, Bank nazorati bo'yicha Bazeli qo'mitasining yangi tavsiyalari asosida yanada takomillashtirish bo'yicha ishlar izchil davom ettiriladi.

Xususan:

- Bazeli qo'mitasining kapital yetarliligi va bank likvidligi borasidagi yangi tavsiyalarini joriy qilish bo'yicha ishlarni davom ettirish;

- banklar faoliyatining aniq va holis baholanishini ta'minlovchi CAMEL(S) tizimining yangi talqinini tatbiq qilishni ko'zda tutgan holda tijorat banklarining moliyaviy holatini baholash tizimini yanada takomillashtirish;

- masofaviy nazorat tizimini bu sohadagi ilg'or xalqaro tajriba asosida yanada takomillashtirish;

- bank tizimidagi tizimli tavakkalchiliklarni aniqlashga qaratilgan makroprudensial tahlilning zamonaviy usullarini keng qo'llash;

- ilg'or xalqaro tajribaga asoslangan holda tijorat banklarini stress-testlardan o'tkazish amaliyotini keng ko'lamda joriy qilish va rivojlantirish;

- tijorat banklaridagi korporativ boshqaruv organlari rolini va mas'uliyatini oshirish hamda korporativ boshqaruv, tavakkalchiliklar va kapitalni boshqarish tizimlariga belgilangan talablarga rioya qilinishi ustidan nazoratni kuchaytirish.

Xulosa

Zamonaviy bank faoliyati turli risklar bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularni samarali boshqarish banklarning eng muhim funksiyalaridan biri hisoblanadi. Risk har qanday bank operatsiyalarida turli kolamda bo'ladi va turli yo'llar bilan qoplanadi. Oldindan ma'lum moliyaviy natijaga kafolatlovchi riskdan holi bo'lgan operatsiyalarni bozor iqtisodiyotida uchratish qiyin. Tijorat banklari uchun riskqardan qochish emas balki ularni, bartaraf etish, minimallashtirish muhim ahamiyatga ega.

Bank risklarini boshqarish tizimi kredit tashkilotini ichki va tashqi tahdidlar ta'siridan himoyalovchi hamda qonunchilik me'yorlari doirasida amal qiluvchi, o'zaro munosabatlar va aloqalarda muayyan yaxlitlikni ifoda etuvchi elementlar majmuini tashkil etadi. Bank faoliyatidagi risklarni boshqarish quyidagi asosiy maqsadlarni ko'zda tutishi zarur: bank omonatchilari va kreditorlari, aksiyadorlari manfaatlarini himoya qilish, bank risklarini kamaytirish, bartaraf etish va oldini olish, bank faoliyatini yetarli darajadagi barqarorligini ta'minlash.

Bank faoliyatidagi risklar turli-tuman bo'lishi qaramay, risk menejmentini shakllantirishda Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan bank risklariga nisbatan belgilangan talab va risklar tasnifini hisobga olish maqsadga muvofiq. Chunki, Bazel qo'mitasi tomonidan keltirilgan risklarni boshqarish bo'yicha amaliy harakterga ega bo'lgan metodologiya shakllantirilgan. Bazel kelishuvi banklar riskli operatsiyasini cheklashni rag'batlantiradi.

O'zbekiston bank tizimida Bazel III standartlarini joriy etish kerak. O'zbekiston bank tizimini xalqaro moliya bozorlari tomon integratsiyalashuvi va banklarda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini (BXXS) to'liq o'zlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga bank risklarini baholash va riskni boshqarish tizimini rivojlantirish hamda bank operatsiyalarida narxlarni shakllantirishning bank kapitaliga bo'lgan ta'sirini o'rganish, bank faoliyati samaradorligi, obro'yi va barqarorligining oshishiga olib keladi. Bazel III Markaziy Bank nazoratini rivojlantirib, ma'muriy usullarda riskka yo'naltirilgan (orientatsiyalashgan) usullarni qo'llashga hamda bank tizimi ochiqqligini

ta'minlashga sharoit yaratadi. Ma'lumki O'zbekiston bank tizimining likvidlik darajasi Bazel qo'mitaning talablariga nisbatan 3 barobar yuqori. Shu sabablardan Bazel III standartlarini joriy etish bank tizimi ustidan nazoratini samaraliroq tarzda standartlarini joriy qilishga imkoniyat yaratadi.

Biroq Bazel III standartlarini o'zlashtirish jiddiy tayyorgarlik va katta xarajat talab etadi. Shuningdek, kerakli infratuzilmani shakllantirish uchun qonunchilik bazasini moslashtirish zarur bo'ladi.

Kredit riski bank faoliyatida uchraydigan risklarning eng yirigidir.

Kredit risklari tarkibiga quyidagi risklarni kiritish mumkin.

1. Kreditlik o'z vaqtida qaytarmaslik bilan bog'liq risk. Bu risk qarz oluvchining kredit shartnomasining shartlarini bajarmasligi, kreditni va kredit bo'yicha foizlarni o'z muddatida qaytarmasligi.

2. Likvidlik riski (to'lovlarni muddatida o'tkazmaslik riski)- bu risk kreditni va kredit bo'yicha foizlarni o'z muddatida qaytarmaslik natijasida bank mavjud mablag'larining kamayishiga olib kelishi bilan bog'liq.

3. Kreditni ta'minlash bilan bog'liq risk. Bu risk yuqorida qayd etilgan risklar bilan chambarchas bog'liq. Bu risk turi kredit uchun qo'yilgan garovni sotishdan tushgan mablag'larni berilgan kreditni qoplash uchun yyyetarli emasligi bilan bog'liqdir, natijada bank o'z talabini tula qondira olmaydi.

4. Qarz oluvchining ishbilarmonligi bilan bog'liq risk. Bu risk korxonaning ish faoliyati bilan bog'liq bo'lib (sotib olish, ishlab chiqarishi, sotish) uning hajmini investitsion dastur va ishlab chiqaradigan mahsulot turi va sifati belgilanadi.

Banklar faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, ehtimol qilinadigan risklarni minimallashtirish masalalaridan biri kredit risklari, ularning darajalarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat.

Kredit risklarini kamaytirishning eng samarali yo'llaridan biri bankning kredit resurslarini yig'ish va ulardan foydalanish bo'yicha diversifikatsiya o'tkazishdir.

Bank faoliyatida uchraydigan eng murakkab risklardan biri-foizli riskdir.

Foizli risk bank foizlarini salbiy o'zgarish natijasida foizli marjani kamayishidir.

Boshqa bank risklari nisbatan foizli risk juda kam urganiladi. Buning asosiy sabablari uning juda murakkabligi.

Oxirgi 20 yil davomida jahon iqtisodiyotida foiz stavkalarining juda yuqori beqarorligi kuzatilyapti. Shuning uchun foizli riskni nazorat qilish va boshqarish bank faoliyatining kredit riski bilan bir qatorda eng muhim vazifalariga kiradi.

Valyuta risklarini kamaytirish uchun quyidagi usullardan foydalanish zarur: Forvard kursini hisobga olish, Forvard valuta shartnomalari, Valutaviy fyuchers shartnomalari, Valuta svoplari, Valuta riskini sug'urtalash

Tijorat banklari faoliyatida uning aktivlari va ular bilan bog'liq aktiv operatsiyalarining risklik darajasini aniqlash bu jarayonini boshqarib borish muhim o'rin tutadi. Xuddi shuning uchun ham har bir tijorat banki o'z aktivlarini joylashtirishni va uni boshqarish usullarini o'zi ishlab chiqmog'i zarur. Ma'lumki, tijorat banklari aktivlarining qiymati va ulardan olinadigan foyda o'zgarib turishi mumkin. Aktivlar bilan bog'liq risklar aktivlar bahosining va ular bo'yicha olinadigan foyda miqdorining kamayishi aktivlar bo'yicha risklar salmog'ining oshishiga olib keladi. Bank aktivlari bo'yicha risklilik darajasini aniqlash bank faoliyatini samarali tashkil qilishning asosi hisoblanib, bank risklarini kamaytirishga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda bank risklarini samarali boshqarish, o'z navbatida, bank faoliyatidagi potensial taxdidlarni prognoz qilish, ularning kelib chiqish ehtimoli, omillari va salbiy oqibatlari darajasini to'g'ri baholash va bartaraf etish yuzasidan zaruriy choralarni ko'rilishi banklarimizni barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlashi shubxasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ – huquqiy hujjatlar :

1.1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.T.: "O'zbekiston", 2013.

1.2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni, 1995-yil 21-dekabr.

1.3.O'zbekiston Respublikasining "Bank va bank faoliyati to'g'-risida"gi Qonuni, 1996-yil 25-aprel.

1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlari erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438 sonli qarori.

1.5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2011 yil 7 maydagi 14/2-sonli "Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomi.

1.6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 1998 yil 2 noyabrdagi 421-sonli "Tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida"gi nizomi.

1.7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2000 yil 22 fevraldagi 429-sonli "Tijorat banklari kredit siyosatiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomi.

1.8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 1998 yil 2 dekabrdagi 557-sonli "Bir qarzdor yoki o'zaro daxldor bo'lgan qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darajasi to'g'risida"gi nizomi.

1.9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 9 noyabrdagi 242-sonli "Tijorat banklari va ularning filiallari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, ssudalar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar o'rnini qoplash uchun tashkil etiladigan zaxirani shakllantirish va undan foydalanish" tartibi.

1.10. I.A. Karimov “Asosiy vazifamiz – vatanimiz tarqqiyoti va faravonligini yanada yuklastirishdir. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2010. –B57

1.11. Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. –T.: O‘zbekiston, 2009, 3b.

1.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning “2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalari”ga bag‘ishlab, joriy yilning 17 yanvarida Vazirlar Mahkamasida o‘tkazilgan yig‘ilishdagi ma’ruzasi.

II. Darslik va o‘quv adabiyotlari:

2.1.Abdullayeva Sh. Bank risklari va ularni kreditlash. – T.: Moliya, 2002.

2.2.Y.Abdullayev, T.Qoraliyev av boshqalar. “Bank ishi”. O‘quv qo‘llanma. T: Iqtisod moliya. 2010. 404-405 b

2.3. P. Saidxodjayev, I. Ismatullayev “Bank operatsiyalarini sug‘urtalash”. Ma’ruza matnlari. T:2012. TDIU.

2.4.Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik.T.: “Moliya” 2005

2.5.Шапкин А. С. "Экономические и финансовые риски". Учебник. - Изд. 3-е. - М.: Дашков и К, 2006.

2.6.Грюшинг Х. В., Братонович С. "Анализ банковских рисков. Система оценки корпоративного управления и управления финансовым риском". Пер с англ. Вспут.сл.д.э.н. К.Тагирбекова.- М.: Изд. ВесМир,2006.

2.7. Краливесткая Л. Н. Банковское дело: кредитная деятельность коммерческих банков: учеб. пос. – М.: КНОРУС, 2008.

2.8.Банковское дело: Экспресс – курс: Учеб. пособ. /Подред О.И. ЛаврушинаМ.: Кнорус , 2008

2.9.Банковское дело: Учеб. / Под ред. Г. Белоглазовой, Л. Кроливецкой - СПб: Питер, 2008.

2.10.Жарковская. Е.П. Банковское дело:Учеб. – М.: ОМЕГА-Л, 2008.

2.11.Tojiyev R.R. Xalqaro valuta-kredit munosabatlari: O‘quv qo‘llanma. – T.: Adabiyot jamg‘armasi. 2006.

2.12.Tojiyev R.R., Yakubova Sh.Sh. Xalqaro Xalqaro valuta-kredit munosabatlari fanidan masalalar to‘plami. - T.: TDIU, 2005.

2.13.Rashidov O‘.YU. va boshqalap. Pul muomalasi, kreditva moliya. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2006.

2.14. Лаврушин О.И. Управление деятельностью коммерческого банка.-М.:ЮРИСТЪ, 2003.

2.15.Носкова И.Я. Валютные и финансовые операции. – М.:ЮНИТИ, 1998.

III. Ilmiy jurnallardagi maqolalar:

1.1. F.Nasriddinov “Tijorat banklarida risk-menejment tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari”. “Birja-Ekspert”. -2012. №1-2.22-27 b

1.2. N.Xolmurotov ”Kredit xatarini kamaytirishning muhim omili”. Bozor, pul va kredit. -2011. №9. 29-33 b.

1.3. SH.Sodiqov. “Tijorat banklarida kredit riskini samarali boshqarish yo‘llari”. Iqtisodiyot va ta’lim. -2010. №8. 85-88 b.

1.4. F.Rustamov. “Управление рисками повисить финансовую стабильность банков” Банковские ведомости. -2011.№48. 7 с.

1.5. S.Xodjikulova “Механизмы регулирования банковских рисков” . Рынок, деньги и кредит. -2012, №4, 20-23 с,

1.6. N.Xolmurotov. “Kredit risklarini kamaytirish muammolari”. Bozor, pul va kredit. -2012. №3. 13 b.

1.7. F.Nasriddinov, Sh.Sodiqov “banklar faoliyatida kredit riskini boshqarishning metodologik muammolari ”. Iqtisodiyot va ta’lim. -2011. №1. 188-121 b.

1.8. F.Nasriddinov “Banklarda risk-menejment strategiyasini shakllantirish muammolari. Iqtisodiyot va ta’lim. -2011. №3. 155-157 и

1.9. F.Nasriddinov “O‘zbekiston tijorat banklarida risklarni boshqarishning amaldagi holati va uni baholash”. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. -2012. №3.

IV.Internet saytlari:

4.1. www.stat.uz.(O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi)

4.2. www.mf.uz. (O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi)

4.3. www.cbu.uz.(O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki).

4.4. www.Google.rurasmiiy aloqa sayti

4.5. www.bank-info.rf rasmiy aloqa sayti

4.6. www.talkbanks.ru rasmiy aloqa sayti

4.7. www.mevriz.ru rasmiy aloqa sayti

4.8. www.sas.com rasmiy aloqa sayti

4.9. www.banks.cnews.ru rasmiy aloqa sayti

4.10. www.risk-manage.ru rasmiy aloqa sayti